

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN YOSHLAR BILAN IJTIMOIIY
ISH OLIB BORISH ASOSLARI**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Nabiyeu O.

Ilmiy rahbar: dots.Bo'riyev N.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2013 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma №___).**

Samarqand – 2013.

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN YOSHLAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISH ASOSLARI

REJA:

I. BOB. YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Jamiyatda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning sodir bo'lishining huquqiy asoslari.

1.2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish.

II. BOB YOSHLARNING XUQUQIY MADANIYATI TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS TOMONLARI.

II. 1. Yoshlarda huquqiy va ahloqiy, madaniyatning uzviy aloqadorligi.

II.2. Yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha социологик тадқиқот ўтказиш.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Малакавий битирув ишининг долзарблиги: Ўзбекистон танлаган ижтимоий бозор муносабатларига ўтиш йўли ва тараққиётнинг ўзбек моделини кучли ижтимоий сиёсат тамойили билан белгиланади. Ижтимоий тартиб деганда ҳуқук ва ахлоқ нормаларига риоя қилиш таъминланиб адолат қарор топган ҳолат тушунилади. Бугунни кунда ҳуқуқбузарлик мойил бўлган ёшлар муаммоларини ўрганиш, таҳлил қилиш ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 64-моддасида «Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунга қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурдилар» деган қонун белгилаб қўйилган. Айнан ана шу ўзгаришлар даврида боланинг эътиборсиз қолиши, бекор бўлиши, унинг кеча ёки кундузи қаерга бориб нима билан машғул бўлганини сўраб суриштирмаслик, тергамаслик охир-оқибат унинг қадам ноқобиликка қўйишига сабаб бўлади. Шу жиҳатдан ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ўртасида, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларни жиноят қўчасига киришдан асраш, оилада берилаётган яхши тарбияни мустаҳкамлаш ёки болани носоғлом оила таъсиридан сақлашда жамоатчиликнинг роли беқиёс. Бунда оила, мактаб, маҳалла ҳамкорлиги мустаҳкам бўлса ўсмирларнинг баркамол бўлиб етишида муҳим ўрин эгаллайди¹. Ўсмирлик даврини бошдан кечираётган бола руҳиятидаги нозик ўзгаришлар ҳақида психология, тиббиёт фанлари бизга жуда кўп маълумот берган. Мамлакатимизда ҳуқуқбузарлик мойил бўлган ёшлар ўртасида назоратсизликни кучайтириш ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида турли ташкилотлар ҳамда муассасаларнинг фаолиятини мувофиқлаштириб бориш бугунги куннинг энг долзарб муаммолардан биридир.

¹ Каримов И.А. «Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори». Т. «Ўзбекистон» 2009.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Бугунги кунда ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ҳамда улар билан ижтимоий иш олиб бориш хусусиятлари тўғрисидаги мавзуда ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ўртасида жиноятчиликни унинг олдини олиш муаммолари, mutaxassislar tomonidan bu masalalni q'aysidir jihatlari o'rganib kelinmoq'da. Xususan, rus Алексеев, Е. А. Лукашева, Р. К. Гусинов kabilarning ilmiy ishlari va yaratgan darsliklari, республикамиз олимларидан И.Абдурасулова¹ ва Э.Эгамбердиев² ҳамда Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 64 моддаси Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги қонунининг 3-моддаси// ва бошқаларни ишини мисол қилиб олишимиз мумкин.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Кўпгина мамлакатларда ёшларга доир қонун ҳужжатлари тизими таркиб топган. Ёшларга тааллуқли меъёрлар ҳуқуқнинг барча соҳаларида учрайди. Ёшлар ҳақида махсус қонунлар қабул қилиш тамойиллари мавжуд чунки, ҳуқуқий тарбия узлуксиз бўлиб, у ёшлиқдан бошлаб қўлланилиб борилиши мақсадга мувофиқдир. Ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшларни тарбиялаш борасида ижтимоий иш ходими малакасини ошириш чора-тадбирлари ишлаб чиқилиши йўлга қўйилмоқда.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

- ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ўртасида жиноятчиликни келиб чиқишини илмий-назарий асослаб бериш;
- ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ўртасида жиноятчилик ва назоратсизликни келтириб чиқарувчи омилларни таҳлил қилиш;
- Маҳалла, оила, тарбиявий муассаса, жамиятда ўзининг ривожланиши учун қулай шароитлардан объектив ва субъектив сабабларга кўра узоқлашган,

¹И. Абдурасулова Вояга етмаганлар жиноятчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари. “Қонун ҳимоясида” Т. №1. 2001й. 23 бет.

²Э.Эгамбердиев. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. -Т.: Камалак. 1996 йил.

беғоналашган ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ҳаёт фаолияти учун шароит яратиш;

Мавзунинг объекти ва предмети: Ҳуқуқбузарликка мойил бўлган ёшлар ўртасида жиноят содир этган ёшлар битирув малакавий ишининг **объекти** бўлиб, жамиятда ёшлар ўртасида жиноятчиликнинг содир бўлишининг ҳуқуқий асослари малакавий битирув ишининг **предмети** саналади.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va metodologik asoslari. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, мамлакатимизда қабул қилинган ҳуқуқий-норматив ҳужжатлар, қонунлар, кодекслар, Президентимиз фармонлари, асарлари ҳамда mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari ushbu mavzuni yoritishda nazariy va metodologik asos qilib olindi.

Malakaviy bitiruv ishida qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Tadqiqot ishida ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo`llaniladigan hujjatlarni o`rganish va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik kabi uslublarga tayanildi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi;

Malakaviy bitiruv ishimiz 2 bob 4 paragraf, kirish va xulosa qismidan iborat: Ushbu boblarda nazariy adabiyotlarga tayanib maqsad va vazifa sifatida belgilangan muammolar yoritildi. Yuqorida keltirilgan fikrlarning asosini mavzuda atroflicha to`xtalib, ochib berishga harakat qilaman.

I. BOB. YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Jamiyatda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning sodir bo'lishi ijtimoiy nazariyalar.

Mustakillik yillarining o'tgan davri mobaynida respublikamizda huquqiy, demokratik jamiyat qurishning besh tamoyillaridan biri bo'lgan "Qonun ustuvorligini ta'minlash" borasida juda katta ishlar qilindi. SHu o'tgan qisqa davr mobaynida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar va kodekslar qabul qilindiki, bularning hammasi xalqimizning turmush farovonligini yaxshilash va qonunlarga og'ishmay amal qilish ruhida tarbiyalashda juda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarni xalqaro talablarga javob bera oladigan darajada qabul qilish vazifasi bahamjihatlik bilan hal qilinmoqda. Garchand davlat jinoyatchilikdan butunlay holi bulish imkoniyatlariga ega bo'lmasada, lekin uning oldini olish, unga qarshi kurash, jinoyatchilikni terlash va jazolash masalalari ham adolatli qonun normalari bilan tartibga solinmoqda. Davlatning ravnaqiga uning rivojlanishiga jinoyatchilik jiddiy to'siq bo'lib, davlat bunday illatga qarshi faqat adolatli qonun bilan kurashadi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «Dunyoda har holda adolat qonuni mavjud. ertami-kechmi har odamning shu qonun oldida javob berishi muqarrardir. Buni hech qachon unutmaslik lozim. Albatta, odam o'z gunohlari uchun jazodan dunyoviy qonunlar oldidan qochishi mumkin, biroq sen qiyomat kunida qerga ham qochib qutularding».³

Yoshlar o'rtasida jinoyatning mohiyatini qoniqarli izohlash sotsiologik izohlash bo'lishi mumkin. Chunki jinoyatlar jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan bog'liq. Ijtimoiy yondoshuvning eng muhim jihatlaridan biri — turli ijtimoiy

³ Каримов И.А. Адолат-фаолияттимиз мезони бўлсин. Адолат, Ватан ва халқ манфаати барчасидан улуғ. –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 53-бет.

kontekstlarda konformlik va og'ishlarning o'zaro aloqadorligini ta'kidlashdir. Hozirgi jamiyatlarda ko'plab submadaniyatlar mavjud bo'lib, ulardan birida me'yoriy hisoblangan xulq, boshqasida og'ish sifatida baholanishi mumkin. Masalan, yoshlardan iborat bandaning a'zolaridan biriga avtomobilni o'g'irlab, «o'zini ko'rsatishi uchun» bosim o'tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, jamiyatda boylar va kambag'allar o'rtasida kuchli tafovutlar mavjud bo'lib, ular turli guruhlarning imkoniyatlariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Kissavurlik yoki buzib kirish bilan bog'liq o'g'irliklar -aholining eng kambag'al qatlamlariga mansub odamlar tomonidan sodir etilishi taajjublanarli hol emas. Jinoyatlarning boshqa turlari — kamomad va soliq to'lashdan qochishlar o'ziga to'q odamlar tomonidan sodir etiladi.

| Sizning fikringizcha, oila inson hayotida qanday rol' o'ynaydi? | | |
|---|--------|--------|
| (so'rab chiqilganlarning %i) | | |
| Javoblarning variantlari | 2002 | 2004 |
| Oila shajarasini davom ettirish, bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash uchun zarur | 63,2 % | 57,4 % |
| Oila - insonning qal'asi, unga hayotda ishonch baxsh etadi | 28,8 % | 32,0 % |
| Oila - keksalikni ta'minlash | 4,9 % | 6,3 % |
| Javob berishga qiynalaman | 3,1 % | 4,3 % |

Bolalar huquqlarini himoya qilish ustuvor ijtimoiy burch hisoblanadi. shu munosabat bilan yuvenal adliyaning tug'ilishi dolzarbdir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda iqtisodiy o'sish bolalar va o'smirlar o'rtasida xavf doirasi kamayish uchun qulay sharoitlar yaratdi. SHu munosabat bilan jamoatchilik fikrida davlatning bola huquqlarni ta'minlash, onalik va bolalikni muxofaza kilish, kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan bolalarni ijtimoiy muxofaza kilishga karatilgan sa'y-xarakatlari xar tomonlama ko'llab-kuvvatlanadi va Davlat raxbarining ushbu soxadagi faoliyatiga yukori baxo beriladi. Boz ustiga bola xukuklarini,shu jumladan, iktisodiy va ijtimoiy usullar bilan ximoya kilish O'zbekistonda xukuk umumiy tizimining bir kismiga aylanmokda.

Voyaga etmaganlarning asotsial xulk-atvori muammolarini xal etishda ushbu salbiy xodisalar profilaktikasi katta axamiyatga egadir. SHu munosabat bilan o'smirlar asotsial xulk-atvori profilaktikasi so'rab chikilgan ekspertlarning fikricha xamda jamoatchilik fikri so'rovi natijalariga muvofik, o'smirlar va yoshlarga ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish tashkiloti, ijtimoiy-psixologik xizmatlar, reabilitatsiya va maslaxat markazlari, yashash joylarida klublar tashkil etish orkali amalga oshirilishi mumkin. Jamoatchilik fikri so'rovi ma'lumotlariga binoan, xar bir maxalla xududida yuvenal' xizmatlar shoxobchasini rivojlantirishga, "xonadon pedagogikasi" shakllarda joriy etishga, yoshlar muxitida soglom turmush tarzini shakllantirish soxasida, shu jumladan, giyoxvand moddalar, alkogoldan voz kechishga undash soxasida strategiyani belgilash uchun extiyoj mavjud. Bu jixatdan "**Kamolot**" yoshlar xarakatini faollashtirish muxim axamiyatga egadir.

Voyaga etmaganlarning asotsial xulk-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orkali tashvikiy-ma'rifiy ishlarni olib borish muximdir. Jamoatchilik fikri so'rovi ma'lumotlari bo'yicha televidenie o'smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalrok manbai hisoblanadi. SHu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli o'sadi. Ijtimoiy reklama o'z takliflari bilan "mehnatni rag'batlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivattsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targ'ib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga ko'maklashadi... Reklamaning ijtimoiy funktsiyasi turmush tarzi targ'ib qilinishini ham nazarda tutadi"⁴.

Ijtimoiy ishchining eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga etmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta'sir ko'rsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bog'liq huquqiy

⁴ Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.

choralar “**ishlashi**” uchun u bolaning ongiga qo’yilishi, uning e’tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish yo’li bilan erishish mumkin.

Ushbu yo’nalishda etarlicha katta ishni amalga oshirish zarur bo’ladi, chunki “Ijtimoiy fikr” markaziy xodimlari tomonidan o’tkazilgan so’rovga ko’ra, har bir besh yoshdan faqat birigina o’zining huquqiy savodxonligini yaxshi, deb baholagan. So’rab chiqilganlarning yarmidan ortig’ini uni o’rtacha (54,3%), 14,9 foizi past deb baholaydi. Huquqiy savodxonlik darajasi bilan belgilanadi.

Bizga ma’lumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan ko’plab jinoyatlar, jumladan voyaga etmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o’rganishda voyaga etmagan jinoyatchilarning ma’naviy-ahloqiy shakllanishiga ta’sir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, oilada yoki ko’cha-ko’yda turli xil ahloqsiz xatti-harakatlarning guvohi bo’lgan o’smir, ahloqsizlik jinoyatlarini ham sodir qilishga qo’l uradi. Bunday jinoyatlar qatoriga voyaga etmagan o’smirlar tomonidan nomusga tegish hollarini ko’rishimiz mumkin.

Xo’sh, shu o’rinda bir savol tug’iladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? SHu o’rinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shart-sharoitlarga, sabablarga to’xtalib o’tamiz.

Voyaga etmaganlar tarbiyasi bilan juda ko’pchilik shug’ullanadi. Bular - otalar, oilani katta yoshdagi boshqa a’zolari, maktabgacha bo’lgan, maktab o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlari muassasalaridagi o’qituvchilar jamoat tashkilotlari va boshqalardir.

Darhaqiqat, ana shu voyaga etmaganlar tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi shaxslarning ular tarbiyasidagi ta’siri kelajakda o’z ta’sirini o’tkazadi.

Masalan, bugungi kunda kelib voyaga etmaganlarning oiladagi tarbiyasi juda sustdir. Chunki nosogʻlom oilalar jamiyatimizda bugungi kunda kupayib bormoqda⁵.

Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yokima`naviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga etmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to`g`ri keladi.

Shu o`rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo`lib, bularning barchasi voyaga etmaganlar tomonidan ahloqsizlik xatti-harakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so`z yuritiladi.

Jumladan, V.YA.Rubal`skaya tomonidan o`tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko`ra, 47 % voyaga etmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy ta`siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo`qligining, 38,3% ota yoki onani yo`qligining, 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi.⁶

O`smir huquqlari o`zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o`ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o`z taqdiri hamda o`z harakatlari uchun ma`suliyatiga bog`liq.

Insoniy bilim va jamoatchilik faoliyatining alohida muhitida o`smir huquqlarini ajratish jarayoni XX asrning 20-yillarida, ya`ni inson huquqlari kontsepsiyasining ikkinchi bosqichida boshlandi. SHu bilan birgalikda, o`smir huquqlarining o`ziga xosligi va ahamiyatini anglash faqatgina uchinchi bosqichda-XX asrning oxirida sodir bo`ldi. O`smir huquqlarida birinchi avlod (salbiy) huquqlari bilan birgalikda ikkinchi avlod (ijobiy) huquqlari birlashtirildi. 80 yildan

⁵ “Ўзбекистон ёшларининг ҳуқуқий тарбиясини юксалтиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари 1-қисм.(Самарқанд, 2002 йил, 24-25 май) Самарқанд-2002.

⁶ Абдурасулова Вояга етмаганлар жиноятчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари. “Қонун ҳимоясида” Т. №1. 2001й. 23 бет.

ortiq vaqt ilgari 1924 yilda Millat Ligasi (BMT timsoli) bola va o'smir huquqlari Jeneva deklaratsiyasini qabul qildi, unda birinchi marta bolalar haqida "ularning jismoniy va aqliy etilmaganini inobatga olib" alohida g'amho'rlik qilish zaruriyati to'g'risidagi muhim fikr printsiptial ravishda rasmlashtirildi. 1989 yil 20 noyabrda BMT Bola huquqlari haqidagi Konvetsiyani qabul qildi. Bugungi kunga kelib Konvetsiyani BMTga a'zo bo'lgan 191ta davlat ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi bu Konvetsiyani 1992 yil 9 dekabrda ratifikatsiya qildi. Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, yosh kadrlarni tarbiyalash yuzasidan milliy dasturning ishlab chiqilishi ham ushbu jarayon to'laqonli xususiyatga egaligining yorqin ifodasidir. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik normalarida voyaga etmaganlar manfaatlarini himoya qilish to'la ma'noda o'z aksini topgan. Jumladan, Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat, Fuqarolik, Mehnat, Uy-joy va oila kodekslarida voyaga etmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning imtiyoz va kafolatlari mustahkamlangan.

SHuningdek, amaldagi JPK, FPK me'yorlarida voyaga etmaganlarga nisbatan yoki ularning ishtirokida fuqarolik yoki jinoyat ishlarini ko'rishda advokat hamda ularning qonuniy vakillari, vasiylik organlari ishtiroki shartligi nazarda tutilgan.

Er-xotinni nikohdan ajratish masalasini hal etishda voyaga etmagan farzandlar manfaatlarini himoya qilish Oila kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Nikohdan ajratish haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarori ko'rsatmalari asosida amalga oshirilib, sudlar tomonidan oilani barbod bo'lishdan saqlash, taraflarga o'zaro yarashish uchun muhlat bermasdan nikohdan ajratmaslik, er-xotin nikohdan ajratilgan hollarda voyaga etmagan bolalar tarbiyasi va ularning moddiy ta'minoti masalasini hal etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ana shunday odilona harakatlar tufayli yuzlab oilalarning o'z maqomini saqlab qolishga muvaffaq bo'linganligi e'tiborga molikdir. Jumladan, 2006 yilning

9 oyida er-xotinni yarashtirish chorasi ko'rilganligi oqibatida 1367 ta nikohdan ajratish haqidagi fuqarolik ishi tugatilgan. Bu raqam minglab bolalarning etimlik azob-uqubutlariga giriftor etilmay, baxtiyor hayot kechirishlariga zamin yaratilganligi bilan izohlanishi, shubhasiz.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. SHu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi madaniyatiga ega bo'lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Buning uchun jamiyatning barcha alohiyati - iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy madaniy-ma'rifiy imkoniyatlari safarbar qilinadi va huquqiy asoslar vujudga keltiriladi.

Prezidentimiz o'ninchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasida so'zlagan nutqida "Mustaqillik bizga nima berishini bilardik. O'z taqdirimiz, o'z farzandlarimiz kelajagini o'zimiz hal etish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'z erimiz, boyliklamizga o'zimiz egalik qila boshladik. Qisqa vaqt ichida mustaqilligimizning ne'matlarini tatib ko'rdik".

Mustaqillik yillari davomida mamlakatda bolalar huquqlari to'g'risidagi milliy qonunchilik tizimi yaratildi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Oila kodeksi; Fuqarolik kodeksi; Mehnat kodeksi; Ma'muriy javobgarlik haqidagi Kodeks; Jinoiy kodeks; Fuqarolik to'g'risidagi Qonun; Ta'lim haqidagi Qonun; Fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish Qonuni; Nogironlarning ijtimoiy himoyalanganligi haqidagi Qonun va boshqalar.

Shuningdek, bolalar huquqlari va manfaatlari bilan nohukumat tashkilotlar ham shug'ullanib kelmoqdalar. Bular: "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro nodavlat jamg'armasi, "Sen yolgiz emassan" respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla", "Ekosan" jamg'armalari, "Kamolot" ijtimoiy yoshlar harakati, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi va boshqalar.

Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish huquqiy demokratik davlat barpo etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoyalashga yo'naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda: milliy qonunchilikka bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro-huquqiy me'yorlarni implementatsiyasi qilish; mamlakatda bolalar huquqlarini ta'minlashning qonuniy asoslarini yaratish va takomillashtirish, bolani rivojlantirish va muhofazalash buyoicha milliy dasturlarni ishlab chiqish; bola huquqlari haqidagi Konventsiya buyicha milliy ma'ruzalar tayyorlash; bolalar huquqlarini ta'minlash buyicha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, YUNISEF, BMT Bola huquqlari buyicha Qo'mitasi bilan hamkorlik qilish.

Bugungi kunda o'z safiga bolalar va yoshlarni birlashtirgan madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy himoya sohasidagi 452 ta tashkilot ish yurityapti. Muhim e'tibor bolalar sportini rivojlantirishga qaratiladi. Jismoniy tarbiya bo'yicha bolalar va o'smirlarni ommaviy jalb etishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari tibbiy xizmat va bolalarni ijtimoiy ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar har yili dispanserizatsiyadan o'tkaziladi, kasalligi aniqlanadi va ularni sog'lomlashtirish ishlari amalga oshiriladi. eng muhimi va diqqat-e'tiborni bolalarga ta'lim berishga qaratiladi. Ta'lim sohosi navbatdagi isloh qilish bosqichi sifatida 2004-2009 yillarga mo'ljallangan asosiy maqsadi boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini yaxshilashni oshirish hisoblanmish maktab ta'limini rivojlantirish Dasturi qabul qilingan.

Respublikamizda yashayotgan aholining qariyb 65%ni yoshlar tashkil etadi. Shu munosabat bilan yoshlarni ishga jalb etish buyicha ancha kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida Respublikamizda o'tgan yilning 12 oyida voyaga etmaganlar tomonidan 1315 ta og'ir, 294 ta o'ta og'ir jinoyat, 37 ta qotilik, 66 ta nomusga tegish, 1722 ta o'g'irlik, 158 ta talonchilik, 48 ta bosqinchilik, 35 ta tovlamachilik va boshqa jinoyatlar sodir etilgan. Voyaga etmaganlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini umumiy yoki kuchaytirilgan tartibli tarbiya

koloniyaoarida o'tashi bekor qilinib, ular jazoni faqat tarbiya koloniyasida o'taydigan bo'ldi. Bu bilan voyaga etmay turib jinoyat sodir qilgan shaxslarni tarbiyalashda ularni koloniyaning salbiy ta'siridan saqlashning imkoniyati yaratildi.

Voyaga etmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash sudning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqida ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi, «Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi «gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi, «dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarni qo'llashning ayrim masallari to'g'risida»gi, «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risidagi» bir qator qarorlari qabur qilingan.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirilishi sharoitlarida mamlakat aholisining katta qismini tashkil etadigan yosh avlod ijtimoiy qayta o'zgarishlarning asosiy sotsial sub`ekti hisoblanadi (30 yoshgacha bo'lganlar ulushi mamlakat umumiy aholisining 65 foizini, shu jumladan 18 yoshgacha bo'lganlar 50 foizini tashkil etadi). Mustaqillik yillarida yoshlar O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarda faol rol' o'ynay boshladilar. Jamoatchilik fikri so'rovi jamiyatda yoshlarning yangi vaziyatga moslashishi jihatidan anchagina siljishlar yuz berayotganligini qayd etadi (yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi, uning tarixi va an`analarini chuqurroq o'rganishga intilish, Vatanni himoya qilishga tayyorlik tuyg'usi yuqori darajada rivojlangan, ta`lim olish, bo'sh vaqtni mazmunli va maroqli o'tkazish ishtiyoqi, ayniqsa sport bilan shug'ullanish xohishi o'sgan). Biroq yoshlarning yangi bozor sharoitlariga moslashishi muammosi hamon dolzarb bo'lib turibdi.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan jamoatchilik fikri so'rovi mamlakatda yuz berayotgan jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga daxl qiladigan jarayonlar ijtimoiy yo'nalishlarning almashishiga va

an`anaviy qadriyatlarning qayta baholanishiga olib kelganligini ko`rsatadi. Ham ijtimoiy, ham shaxsiy ustuvorliklar tobora ahamiyatliroq bo`lib bormoqda. Bu xulosaga O`zbekiston yoshlarining ustuvor hayotiy qadriyatlarini aniqlash asosida kelindi.

Shu bilan birga sotsiologlar va psixologlarning tadqiqotlari orqali ijtimoiylashuv, ya`ni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatish uchun o`zini tutishni, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o`zlashtirib olish jarayonida asotsial hulq-atvorning har xil shakllariga jalb etilish xavfiga ko`plab duchor bo`lishini isbot qiladi. Ayniqsa dunyoqarashi shakllanmagan va qadriyatlar tizimi o`zgarib turadigan o`smirlarga qiyin. O`smirlar hali yosh ekanligi tufayli ularning ahloq va haqiqat haqidagi tasavvurlari verbal darajada bo`ladi, hali ular hulq-atvorining anglangan tartibga soluvchisiga aylanmagan bo`ladi.

Huquqni buzish umuman olganda, jamiyat manfaatlariga yoki fuqarolarning shaxsiy manfaatlariga qarshi qaratilgan asotsial hulq-atvor shakllaridan biri hisoblanadi. barcha huquqni buzishlar jinoyat va qilmishga bo`linadi. Qilmish shaklidagi huquqni buzish o`smirlarda o`zini tahdidli holatda tutishda, behayolikda, urishqoqlikda, mayda o`g`irlikda, ichkilikbozda, daydilikda namoyon bo`ladi.

O`smirlar va 14-18 yoshdagi yoshlar uchun huquqqa zid g`arazli, ham zo`ravonlikka asoslangan vajlari xosdir. G`arazli huquqni buzishlar tugallanmagan bola xarakteriga ega bo`ladi, chunki tajovuz tusiga ega bo`lmagan sho`xlik va qiziquvchanlik tufayli sodir etiladi.

Sotsial monitoring ma`lumotlariga muvofiq. O`zbekistonda voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilik darajasi yildan yilga pasayib bormoqda.

| Voyaga etmaganlar orasida ro`yxatdan o`tkazilgan jinoyatchilik darajasi (14-17 yoshdagi 100000 kishiga voyaga etmaganlarning huquqbuzarligi) | | | | |
|--|------|------|------|------|
| | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 |
| Qozog`iston | 623 | 608 | 607 | 658 |
| Qirg`iziston | 308 | 330 | 284 | 224 |

| | | | | |
|--|-----|-----|-----|-----|
| Tojikiston | 95 | 86 | 81 | - |
| Turkmaniston | 136 | 96 | 59 | 45 |
| O'zbekiston | 143 | 144 | 129 | 119 |
| Manba: Sotsial monitoring -2012 (YUNISEF) | | | | |

Tarbiyasi og'ir, voyaga etmasdan jinoyat qilib, jazo muddatini o'tab kelgan yoshlar bilan ishlashni ham huquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish kerak. Aynan shunday yoshlarni jinoyat yo'liga kirishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ongiga Vatanga sadoqat, fidoiylilik va insoniylik hislarini singdirish - kundalik ishimizda asosiy qaratiladigan muhim ishlardan biridir. Buni esa oila, mahalla, o'quv muassasasi bilan hamkorlikda ish yuritib oqlay olish mumkin.

I.2 ВОЯГА ЕТМАГАН ЁШЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИНИНГ ИЖТИМОЙ ТАВСИФИ

Ҳозирги вақтда вояга етмаганлар жиноятчилиги ҳақида салмоқли статистик материал тўпланган, уни таҳлил қилиш методикаси асосан ишлаб чиқилган. Буларнинг барчаси вояга етмаганлар жиноятчилигининг ҳолатини, унинг миқдор ва сифат (таркибий ва бошқа) ўзгаришларини анча аниқ баҳолаш имконини беради.

Ўзбекистонда жиноят статистикаси 1990 йилгача жиноят содир этгани аниқланган шахслар сонига кўра вояга етмаганлар жиноятчилиги ҳар беш йилда ўрта ҳисобда 4-8% га изчил ўсиб борганини қайд этиб келган. 1991 йилдан бу тенденция сезиларли даражада ўзгарди. 1995-1996 йилларда рўйхатга олинган жиноят содир ўсмирлар сонининг ўсиши 8% ни ташкил этди. Ушбу кўрсаткич Россия Федерациясида 20%, Украинада – 16,8%, Озарбайжонда – 18,1, Қозоғистонда – 14,9%, Туркменистонда – 9%, Беларуссияда – эса 9,8% ни ташкил этган. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятлар Республикамизда 2003 йилда 2586 та(-9,5), 2004 йилда 2856 та, 2005 йилда эса 2549 тани (-1,4) ташкил этмоқда.

1998 йилда 50 мингдан ортиқ жиноятчи, шу жумладан икки мингдан ортиқ вояга етмаганлар ҳукм қилинган бўлиб, бу жазога тортилган жиноятчилар умумий сонининг 4% га яқинини ташкил этади. 1996 йилда бу кўрсаткичлар тегишли равишда 51602 жиноятчи, 2023 ўсмир ва 3,9% ни ташкил этган, 50 дан ортиқ ўсмир Олий суд томонидан жазога ҳукм қилинган эди.

Маҳкумлар таркибини кўздан кечирадиган бўлсак, 1998 йилда жиноят содир этган 2000 дан кўпроқ жиноятчи орасида 37 киши ҳаётга қарши жиноятлар учун (ЖКнинг 97-103-моддалари бўйича) ҳукм қилинган (1996 йилда – 10 киши). Соғлиққа қарши жиноят содир этганлар (ЖКнинг 104-111-моддалари) 50 дан ортиқ кишини, талончилик учун 150 дан ортиқ киши, босқинчилик учун – 40 дан ортиқ киши ҳукм қилинган, шундан 160 дан

ортиқ кишига (бу жами вояга етмаган маҳкумларнинг 8% ни ташкил этади) шартли жазо тайинланган.

Вояга етмаган жиноятчиламнинг ярмидан кўпроғига озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо белгиланган. Вояга етмаганлар ўртасидаги аёллар жиноятчилигига оид маълумотлар ҳам диққатга сазовор. 2142 ўсмирдан 113 киши (5,35%) аёл жинсига мансуб бўлган.

Вояга етмаганлар жиноятчилигининг ҳудудий тақсимланишини ўрганиш криминологик аҳамиятга молик бир қанча тенденцияларни намоён этади. Статистик кузатиш билан қамраб олинган республика ва унинг вилоятлари чегараларида айрим минтақалар ўртасида жиноятчилик даражасида жиддий миқдорий тафовутлар қайд этилади.

Вояга етмаганлар жинойи фаоллигининг энг катта даражаси сўнгги йилларда Тошкент шаҳри, Навоий, Тошкент, Сирдарё, Наманган, Фарғона, Қашқадарё, Андижон ва Хоразм вилояларида, энг паст кўрсаткичлар – Жиззах, Сурхондарё, Самарқанд, Бухоро вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикасида кузатилмоқда.

Жиноятчилик даражасидаги ҳудудий фарқларни таҳлил қилишда доим йирик саноат марказларида вояга етмаганлар жиноятчилигининг энг юқори кўрсаткичлари қайд этилади. Қишлоқ ҳудудларида тадқиқотчилар кўпроқ унинг миқдор ва сифат хусусиятлари ўхшашлигини қайд этадилар.

Криминологлар вояга етмаганлар жиноятчилиги даражаси билан минтақани тавсифловсби болалар ва ўсмирлар умумий сони ва улуши; ишламайдиган ва ўқимайдиган меҳнатга лаёқатли вояга етмаганлар улуши; судланганиар, маиший ҳуқуқбузарлик содир этувчи шахслар (пиёнисталар, безорилар ва ҳ.к.) улуши; ҳар хии тиббий рўйхатларда турувчи шахслар (алкоголизм, гиёҳвандлик касалликларига чалинганлар, руҳий касаллар ва б.) улуши каби кўрсаткичлар ўртасида изчил боғланиш мавжудлигини аниқлаганлар.

Вояга етмаганлар жиноятчилигидаги минтақавий фарқлар билан бузилган оилалар ўртасида узвий алоқа мавжудлиги аниқланган. Айни шу

кўрсаткичга кўра ўсмирлар жиноятчилигининг энг кам ва энг катта даражаси кайд этилган минтақалар билан ажрашган эр-хотинлар сонига кўра ўхшаш минтақаларнинг деярли тўлиқ мос келиши кузатилади. Бу вояга етмаганлар билан тарбия-профилактика ишларининг устувор йўналишларини танлашда оиладаги бекарорлик кўрсаткичларидан бош мезонлардан бири сифатида фойдаланиш имконини беради.

Криминологияда вояга етмаганлар жиноятчилигини таркибий таҳлил қилиш айниқса кенг тарқалган. У қасддан одам ўлдириш, қасддан баданга оғир шикаст этказиш, номусга тегиш, босқинчилик, талончилик, ўғрилиқ, безорилик каби жиноятлар бўйича ўтказилади.

Ўқотар қуролни эгаллаш ва қоилаш, милисия ходимларига қаршилик кўрсатиш ҳамда уларнинг қонуний талабларига бўйсунмаслик ҳоллари кўпайиб бораётир. Вояга етмаганлар ўртасида илгари асосан катталарга хос бўлган жиноятлар, чунончи: қурол ва гиёҳвандлик воситалари билан савдо қилиш; фоҳишахона сақлаш ёки қўшмачилик қилиш; босқинчилик; тирибгарлик; ўғрилиқ мол билан савдо қилиш тобора кенг тарқалмоқда.

Вояга етмаганлар жиноятчилиги доимо асосан гуруҳий хусусиятга эга бўлган. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган группавий жиноятлар улуши катталар жиноятчилигининг шундай кўрсаткичидан тахминан 1,5-5 баравар ортиқ ва вояга етмаганларнинг умумий жиноятчилиги таркибида 20-80% ни ташкил этади. Ёш, руҳият ва бошқа шахсий хусусиятларга кўра ижобий ва салбий тусдаги гуруҳий хулқ-атвор вояга етмаганлар учун табиий ҳои ҳисобланади.

Сўнгги йилларда ғайриҳуқуқий хулқ-атворли ўсмирлар гуруҳларининг йириклашуви кузатилмоқда. Жами гуруҳлар бешдан уч қисми иштирокчилари ёшининг ҳар хиллиги уларнинг мазкур фаолиятга мойиллигини янада кучайтиради, унинг янада фаоллашувига туртки беради.

Ўсмирлар гуруҳларининг уюшган жиноятчиликка бўйсунмиш жараёни ҳам фаол кечаётир. Бу гуруҳлар ишсиз, майда тижорат билан шуғулланувчи, шунингдек озодликдан маҳрум қилиш жойларидан қайтган ва ҳаётда ўз

ўмини топа олмаган ўсмирлар ҳисобига тўлиши учун ижтимоий негиз кенгайиб бормоқда. Кам таъминланган оилалардан бўлган ўсмирлар хуфёна иқтисодиёт ва уюшган жиноятчилик тузилмаларига тобора фаолроқ жалб қилинмоқда. Уюшган жиноятчилик сардорлари ўсмирларни ўз таъсири доирасига бажонидил киритиб, уларнинг профессионал жиноий шаклланиши ва ўсишини назорат қилмоқдалар.

Вояга етмаган жиноятчиламнинг шахсий хусусиятлари ҳам диққатга сазовор. Мазкур тоифага мансуб жиноятчилар орасида доимий даромад манбаига эга боимаган (ишламайдиган ва ўқимайдиган) ўсмирлар кўпчиликини ташкил этишини деярли барча тадқиқотчилар қайд этадилар.

Турли маълумотларга кўра вояга етмаган жиноятчилар орасида мактаб ўқувчилари 38,3% ни, ишлайдиганлар – 11,4% ни, доимий даромад манбаига эга бўлмаганлар – тахминан 30% ни ташкил этиди.

Ҳуқуқбузарликлар содир этилишига имконият яратувчи сабаб ва шарт-шароитлар муаммоси ҳар қандай криминологик тадқиқотда у ёки бу тарзда кўриб чиқилади, чунки у криминологиянинг муҳим муаммоларидан биридир. Зеро, илмий ўрганиш нафақат назарий, балки амалий аҳамиятга ҳам эга. Жиноят сабаблари нима-ю, унинг шарт-шароитлари деганда нимани тушуниш лозим, деган масала бизнинг криминологик адабиётларимизда, афсуски, ҳанузгача аниқ ҳал қилинмаган. Аксарият ҳолларда бу тушунчалар адаштирилади ёки бир-бирига тенглаштирилади. Айтилган ҳолатлар вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларининг сабаб ва шарт-шароитлари муаммосига ҳам тааллуқли. Ушбу масалага нисбатан ҳар хил ёндашувлар мавжуд.

Айрим олимлар вояга етмаганлар жиноятчилигининг сабаблари жумласига куйидагиларни киритади: яшаш, ўқиш ёки иш жойидаги муҳитнинг салбий таъсири; ўқишни ташлаб кетган ўсмирлар узок вақт муайян иш билан шуғулланмаслиги; ўсмирнинг нотўғри тарбияланишини белгиловчи шарт-шароит омиллари; ёши катта жиноятчиламнинг далолатчилиги; зўравонлик ва қонунсизликни ифодаловчи китоблар ва филмлар таъсири. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг шарт-шароитлари

сифатида эса, қуйидагилар қайд этилади: назоратсизлик; умумий таълим мактаблари ва коллежларда таълим-тарбия ишларида мавжуд камчиликлар; ишга жойлаштиришда ҳамда ишлаб чиқаришда тарбия ишларини ташкил этишда мавжуд камчиликлар; маданий ҳордиқ чиқаришни ташкил этишдаги камчиликлар; вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олиш ҳамда унга қарши бевосита кураш олиб бориш вазифалари зиммасига юкланган органлар фаолиятидаги камчиликлар.

Айримлар вояга етмаганлар жиноятчилигининг сабаблари қаторига қуйидагиларни киритади: ўсмирнинг қайфияти ва руҳиятига таъсир кўрсатувчи ҳаётдаги муваффақиятсизликлар; маънавий ва ахлоқий мўлжалларнинг беқарорлиги; шахслар жиноий гуруҳи билан яқин алоқада бўлиш ёки муайян шароитда улар ўсмирга салбий таъсир кўрсатиши; руҳиятининг айрим хусусиятлари; оила ёки жамоадаги ноқулай шарт-шароитлар.

С.С.Остроумов ва Н.Ф.Кузнесова фикрига кўра, оиладаги тарбияда йўл кўйилган хатолар ҳуқуқбузарликлар содир этишнинг сабаблари эмас, балки шарт-шароитларидир. И.И. Карпес назоратсизликка ичкиликбозлик билан бир қаторда жиноятга шарт-шароит яратувчи омил сифатида қарайди.

Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитлари тушунчалари материалистик диалектика категорияларининг муайянлаштирилган кўринишлари ҳисобланади. Демак, «сабаб» ва «шарт-шароит» фалсафий категорияларини тушуниб этмасдан криминологияда уларни илмий талқин қилиш ва қўллаш мумкин эмас.

Сабабий алоқалар – детерминасия муносабатлари турларидан бири ҳисобланади. Детерминасия – бу ҳодисалар ўзаро алоқасининг шундан бир усули-ки, бунда бир ҳодисанинг юзага келиши бошқа ҳодисалар билан белгиланади. Детерминасия муносабати бир томондан белгиловчи омиллар (детерминантлар)ни назарда туца, бошқа томондан – белгиланган натижа (ҳосила)ни назарда тутди. Детерминизм умумий принципига кўра, воқеалар

муайян тарзда юз беради ва улар юзага келиши мобайнида кечадиган жараёнлар белгиловчи омиллар мажмуидан таркиб топади.

Фалсафий адабиётларда детерминасия жараёнининг қуйидаги таркибий қисмлари фарқланади: 1) шарт-шароит; 2) фаолият; 3) ҳаракат (оқибат, натижа).

Шарт-шароит деганда мазкур ҳодиса ёки унинг хоссалари юзага келиши, мавжуд бўлиши, ўзгариши ёки йўқолишини белгиловчи муҳим омиллар мажмуи тушунилади. У ёки бу ҳодиса маълум жойда тегишли шарт-шароит юзага келган ҳолдагина юз бериши мумкин ва муайян шарт-шароит майжудлиги туфайли мавжуд бўлиши мумкин.

«Шарт-шароит» тушунчасидан «муҳит» тушунчасини фарқлаш лозим. Сўнги зикр этилган тушунча нафақат шарт-шароит сифатида амал қиладиган омилларни, балки мазкур ҳодисада иккинчи даражали аҳамиятга эга боиган билвосита омилларни ҳам ўз ичига олади. Бу қоида криминологик тадқиқотлар учун айниқса муҳим, чунки ижтимоий муҳитда жиноят содир этилишига имконият яратган криминоген сабабларни ҳам, билвосита сабаблар ёки криминоген сабабларга қарши омилларни ҳам эътиборга олиш лозим.

Шарт-шароитга айланувчи омиллар белгиланган ҳодиса юз бергунга қадар тасодифий ҳолатлар мажмуи сифатида мавжуд бўлади. Шундай қилиб, ўз ҳолича мавжуд боиган муайян сабаблар детерминасия жараёнида ўзалари белгилаётган ҳодисага нисбатан шарт-шароитга айланади. Шарт-шароитнинг майжудлиги ҳодиса юз бериши мумкинлигини англатади.

Қандай қилиб имконият борлиққа айланади, ниманинг таъсирида ҳаракат (оқибат) пайдо боиади? Детерминасия жараёнининг мазкур элементиға хос боиган фаолият – сабаб таъсирида юзага келади. Демак, сабаб шарт-шароитни ҳаракатға айлантирувчи фаол асосдир. Сабабни фақат унинг оқибати орқали тушуниш мумкин ва аксинча, оқибатнинг табиатини фақат унинг сабаби орқали аниқлаш мумкин, чунки улар бир-бирини тақозо этади.

Сабаб-оқибат богианишларини аниқлашга нисбатан тўрт хил ёндашувни фарқлаш мумкин:

1) «Кандисионалистик» (шартли) ёндашув сабаб деганда мазкур оқибат учун зарур ва этарли боиган ҳолатлар мажмуини тушуади.

2) Анъанавий ёндашув – бунда ташқи таъсир мазкур оқибатнинг сабаби ҳисобланади. Криминологияда жиноятлар улар содир этилган шароит ҳамда бошқа шахслар, шу жумладан жабрланувчилар хулқ-атвори билан бевосита богианади. Шунини таъкидлаш лозимки, криминологияда сабабиятнинг «анъанавий» талқини тор хусусиятга эга боиб, деярли ҳеч қачон яққа ҳолда қўлланилмайди, балки доим бошқача ёндашувлар билан тоидирилади.

3) Анъанавий-диалектик ёндашув кенг тарқалган ва криминологик адабиётларда анча пухта ишлаб чиқилган ёндашув ҳисобланади. Унга кўра, мазкур оқибатни юзага келтирувчи ҳамма нарса сабабдир. Муайян ташқи ҳолатлар таъсирида объектда ўзгаришлар юз бериши мумкин. Айрим муаллифлар салбий ижтимоий-руҳий ҳодисалар ва жараёнларни жиноятчилик ва жиноятнинг «бевосита» сабаби деб ҳисоблайди. Бундан «Жиноятчилик сабаблари доим ижтимоий-психологик табиатга эга бўлади», деган хулоса келиб чиқади.

Бу ижтимоий-психологик муаммолар криминологияда икки йўналишда, биринчидан, жиноий хулқ-атвор ва жиноятсбиликнинг генезисини аниқлаш нуқтаи назаридан, иккинчидан, кўриб чиқилаётган ҳодисага қарши кураш, шу жумладан ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш нуқтаи назаридан ўрганилиши лозим.

Шахсни криминологик жиҳатдан ўрганишда уни ижтимоий муҳитга боғлаб таҳлил қилиш муҳимдир, чунки жиноий хулқ-атворни муҳит ёки шахснинг ўзи эмас, балки уларнинг ўзаро таъсири юзага келтиради.

Бинобарин, ижтимоий шарт-шароитнинг жиноий хулқ-атвор билан алоқаси мураккаб хусусият касб этади, бунда ижтимоий шарт-шароит доим жиноятда шахс орқали намоён бўлади.

Жиноятчиликнинг ижтимоий-руҳий жиҳатлари тўғрисида сўз юритганда, жиноятчилик жиноятламинг оддий йиғиндиси ёки мажмуи эмаслигини, у ўз қонуниятлари, миқдор ва сифат кўрсаткичларига эга эканлигини қайд этиб ўтиш лозим. Жиноятчиликнинг асосий сабабларини аниқлаш учун жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тузилишини, уни белгиловчи алоқалар ва муносабатларни ўрганиш ва уларни жиноятчиликка боғлаб таҳлил қилиш керак.

Жиноятчилик минтақавий хусусиятларга ҳам боғлиқ бўлади, бинобарин уни ҳам алоҳида ўрганиш лозим. Бунда микромуҳитни ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга, чунки шахс хулқ-атвори, унинг шаклланиши оилага, унинг дўстлари, танишлари, қўшнилари ва ҳоказолар муҳитига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади.

Вояга етмаганлар жиноятчилиги катталар жиноятчилиги билан бир хил сабабларга эга, бироқ уларнинг вояга етмаганлар жиноятчилигига таъсир кўрсатиш механизми анча фарқ қилади. Бу сабаблар шахснинг шаклланишига сезиларли даражада таъсир кўрсатади. Мазкур тарбия ташкилий ва стихияли жиҳатларни, тарбия ҳамда тегишли ижтимоий амалиёт таъсирини ўз ичига олади.

Шахснинг алоҳида ижтимоий типини ажратиш учун асос бўладиган шахсий хусусиятлар мавжудлиги тўғрисидаги масала қизгин баҳсларга сабаб бўлиб келмоқда. Айрим муаллифлар фикрига кўра, жиноятчи шахс сифатида бошқа одамлардан ажралиб туради», айрим муаллифлар эса, асосан жиноят содир этиш пайтида шахснинг шарт-шароит билан ўзаро таъсирига ишора қилади.

Умуман олганда, шахснинг ижтимоий хусусиятлари у мансуб бўлган ижтимоий гуруҳ билан боғланади, бу – типларга ажратишга нисбатан методологик ёндашувнинг негизи. Жиноят содир этувчи вояга етмаган шахсининг типини аниқлашда айрим методологик ва методик қоидаларни эътиборга олиш лозим.

Ижтимоий шахс ва муҳит мураккаб шароитда – муаммоли ва можароли вазиятларда ўзаро таъсирга киришиш механизмнинг нуқсонлари айниқса муҳимдир. Жиноят бошқа шахсларнинг айбига кўра юзага келувчи вазият таъсирида содир этилади. Бунда ахлоқ ва ҳуқуқ нормалари бошқа субъектлар томонидан бузилади. Айни вақтда, тегишли шароитда шахс ўзининг ва бировнинг ғайриҳуқуқий хулқ-атворини, ҳатто жиноятини оқлаши ёки можароларни ҳал қилишнинг бошқа, қонуний ва ахлоқий усулларини билмаслиги мумкин. Бу эрда жиноят содир этилган шарт-шароит ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Зўрлик ишлатиб жиноят содир этувчи вояга етмаган жиноятчининг шахси ўзини кўрсатишга, ўз бевосита муҳитидаги шахслар юксак баҳосини олишга интилишнинг кучлилиги билан ажралиб туради.

Зўрлик ишлатиб жиноят содир этувчи вояга етмаган жиноятчининг шахси, умуман жиноятчи шахси каби, худбинлик хусусиятига эга. Бироқ унинг худбинлиги одатда гуруҳий хусусият касб этади. Зўрлик ишлатиб жиноят содир этувчи ўсмирларнинг ўзини кўрсатиш усуллари шу билан боғлиқки, улар норасмий гуруҳга қаттиқ боғланган ҳолда, ўз фаоллиги, ўзининг қобилиятларини расмий даражада маъқулланувчи шаклларда намойиш этишга ҳаракат қилмайди. Тамагир жиноятчининг шахсига келсак, унга гуруҳий эмас, балки индивидуал худбинлик хос бўлади.

Вояга етмаган жиноятчиларнинг аксарияти аралаш типга мансуб, айниқса, агар улар криминоген микромуҳитда узоқ вақт яшаган ва ғайриҳуқуқий қилмишлар содир этувчи шахслар билан яқин алоқа қилган бўлса.

Вояга етмаганлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишнинг ижтимоий муаммоларини ўрганиш вояга етмаганлар ижтимоий категориясининг мазмуни, унинг шаклланиши, ривожланиши ва жамиятдаги ўрни, вояга етмаганларнинг қадриятлари, мақсадлари ва фаол ҳаётий позисиясининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи ижтимоий омиллар, ёш

хусусиятлари ва ҳоказоларни таҳлил қилиш билан боғлиқ айрим умумий методологик қоидаларни кўриб чиқишни тақозо этади.

Тарбияси оғир ўсмир – бу ахлоқан тузатиш ва қайта тарбиялашга муҳтож бўлган вояга етмаган шахс. Уни ахлоқан тузатиш ва тарбиялаш мазкур шахс жинойтчиға айланишининг олдини олиш, шунингдек унинг жамият билан нормал алоқаларини тиклаш, унда фаол ҳаётий позисияни шакллантириш мақсадида амалға оширилади.

Ҳар бир вояга етмаган тарбияси оғир шахснинг хулқ-атвори ўзига хосдир; у ўсмир шахси шаклланишининг объектив ва субъектив омиллари билан белгиланади. Бу тарбия ва профилактика ишларида индивидуал ёндашув этакчилик қилиши лозимлигини англатади.

Афсуски, амалда тарбияси оғир ўсмирларға нисбатан асосан оғзаки таъсир кўрсатиш воситалари (танбех, хайфсан ва ш.к.) қўлланилади. Тарбияси оғир ўсмирға жуда тўғри, хайрихоҳ муносабатда бўлиш, унинг потенциал имкониятларига ишонч билдириш муҳимдир. Мактаб болалар ва ўсмирлар ҳаёти ва хулқ-атвори учун масъул педагогик марказға айланиши лозим.

Агар жинойтларни профилактика қилишнинг ихтисослашмаган субъектлари зарарли таъсир манбаларини бартараф этишға қаратилган тарбия ва профилактика чораларини ўз вақтида кўрмасалар, тарбияси оғир ўсмир педагогик ва ижтимоий беқарорликнинг навбатдаги босқичига ўтишиға сабабчи бўладилар. Бу босқич ўсмирнинг оиладаги, мактабдаги, ишдаги муносабатлари янада ёмонлашуви, у ижтимоий жиҳатдан ижобий муҳитдан узоқлашиши билан тавсифланади. Оиладаги назоратсизлик, ўқув ёки меҳнат жамоаси таъсиридан четда қолиш ўсмирда масъулияцизлик ва бошбошдоқлик каби салбий туйғуларни шакллантиради ҳамда мустаҳкамлайди.

Дастлабки ҳуқуқбузарликларнинг жазосизлиги қонун талабларига беписандлик, атрофдагилар фикри билан ҳисоблашмаслик одатини ривожлантиради. Агар жиноий хулқ-атвор генезисининг биринчи босқичида

жиноятларни профилактика қилишининг ихтисослашган субъектлари (вояга етмаганлар билан ишловчи комиссиялар ва инспекциялар, махсус мактаблар ва ҳ.к.) тегишли чораларни кўрмасалар, бу ўсмирнинг ғайриижтимоий мойилликларини янада чуқурлаштиради.

Вояга етмаганлар жиноий хулқ-атвори этнологиясини ўрганиш ҳозирги шароитда вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашда жиноятлар профилактикаси асосий ўринни эгаллаши лозимлигини кўрсатади.

Вояга етмаганлар жиноятчилигини профилактика қилиш – бу хулқ-атвори ахлоқий ва ҳуқуқий нормалар чегарасидан четга чиқаётган, лекин ҳали жиноий тус олмаган вояга етмаганлар шахсини ихлоқан тузатиш ва қайта тарбиялаш борасидаги махсус фаолият. Бу эрда ғайриижтимоий хулқ-атворнинг уч тури (ахлоққа зид, ғайриҳуқуқий ва жиноий хулқ-атвор)дан дастлабки иккитаси профилактика объекти сифатида амал қилади. Шундай қилиб, профилактика ўз мазмунига кўра барча вояга етмаганларга қаратилган умумий тарбиявий чоралар билан жиноят содир этган шахсларга нисбатан кўлланиладиган жиноят-ҳуқуқий чоралар ўртасида оралиқ бўғин ҳисобланади.

Умумий профилактика чоралари асосан беқарор оилаларнинг салбий таъсирини бартараф этади, муҳтож ўсмирларга давлат ва жамоат ёрдамини кўрсатиш (васий ёки ҳомий белгилаш, меҳрибонлик уйи, мактаб-интернатга юбориш, ўқишга ёки ишга жойлаштириш), вояга етмаганларга таълим-тарбия бериш билан шуғулланувчи муассасалар фаолиятидаги камчиликларни бартараф этиш, ўсмириарнинг дам олишини оқилона ташкил этиш, вояга етмаганлар қонун ҳужжатларига риоя этиши устидан назорат олиб бориш ва ҳоказоларни назарда тутати.

Вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олиш билан боғлиқ барча чоралар унинг бош вазифасини амалга ошириш – бошланган шахс бузилишини тўхтатишга, унинг айрим салбий хусусиятларига барҳам беришга, шунингдек микромуҳит криминоген омилларининг таъсирига чек қўйишга қаратилиши лозим. Профилактика чора-тадбирлари тарбияси оғир

Ўсмирлар ғайриижтимоий хулқ-атворнинг янада хавфлироқ шакллариға ўтишини тўхтатишлари, улар келажакда тўғри йўлга кириб, фаол ҳаётий позисияни эгаллашларини таъминлаши лозим.

Бу борадаги жиддий камчилик шундан иборатки, вояга етмаганлар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва жамоат ташкитотларининг профилактик таъсири доирасига асосан ҳуқуқбузарликлар содир этганларидан кейин тушадилар.

Ўсмирларнинг ғайриижтимоий мойилликларини дастлабки босқичда профилактика қилиш чораларини қўллашга нисбатан юзаки ёндасбиш ҳоллари мавжудлигини ҳам қайд этиб ўтиш лозим. Масалан, вояга етмаганлар билан ишлаш инспекциялари ва комиссиялар асосан тарбияси оғир ўсмирларнинг ўзига таъсир ўтказди. Уларнинг беқарор ота-оналарига нисбатан эса, нари борса маъмурий чоралар кўриш билан кифояланади. Ваҳоланки, бу чоралар ўз ҳолича ўсмирнинг микромуҳитини соғломлаштира олмайди. Кўпинча бу ўсмир билан ўтказилган тарбия ишларининг барча натижаларини чиппакка чиқаради.

Бу соҳада қонунийликка риоя этилиши устидан прокурор назорати чоралари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Назоратни ташкил этишга нисбатан юзаки ёндашув шунга олиб келмоқдаки, айрим қарорлар амалда бажарилмаяпти ёки ўз вақтида, тўлиқ ёҳуд лозим даражада бажарилмаяпти. Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги қонуни прокуратура органлари зиммасига ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг жиноятчиликка ва бошқа ҳуқуқбузарликларга, шу жумладан вояга етмаганлар жиноятчилиги ва ҳуқуқбузарлигига қарши кураш фаолиятини мувофиқлаштириш вазифасини юклайди. Бу профилактика ишининг барча иштирокчилари кучғайратини бирлаштиришни назарда тутди ва айни вақтда прокурорларнинг назорат функцияларини бажариш мажбуриятини соқит этади. Прокуратуранинг вазифаси – жиноятларнинг олдини олиш, вояга етмаганларни тарбиялаш учун масъул ходимлар ўзларига юкланган қонуний ваколатларни қандай амалга ошираётгани устидан назоратни кучайтириш.

Вояга етмаганлар билан ишловчи комиссиялар шуғулланадиган муҳим масала – вояга етмаганларни ишга жойлаштириш масаласи ҳам эътибордан четда қолмаслиги керак.

Мазкур боб доирасида биз вояга етмаганлар жиноятчилигининг энг муҳим масалаларинигина ёритишга ҳаракат қилдик. Бироқ юқорида айтилганларнинг ўзидан кўриниб турибдики, профилактика фаолиятини янада такомиллаштириш – ҳуқуқий жамият ривожланаётган шароитда вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашнинг самарадорлигини оширишнинг муҳим воситасидир.

Har bir inson, har bir oila, jamiyatning muqaddas vazifasi, eng avvalo, qobiliyatli farzandlarni oʻstirish, ularni jismoniy va maʼnaviy jihatdan etuk, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham mustaqil Oʻzbekistonimizning birinchi Konstitutsiyamizda “oila-jamiyatning asosiy boʻgʻini, onalik va bola-lik davlat tomonidan himoyalangani, voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onalariga gʻamxoʻrlik qilishlari shart”⁷, deb koʻrsatib oʻtilgan. Bu ishonchli, huquqiy kafolatlarda xalqimiz bosib oʻtgan uzoq va yorqin tarixiy yoʻlning betimsol sabogʻi, qadim ana`ana-larimiz aks etib turadi.

Ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi huquqiy munosabat, ular-ning bir-biriga boʻlgan mehr-oqibati birinchi navbatda oilada na-moyon boʻladi.

Aksari hollarda, ayrim oilalarda maishiy buzuc, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarini suiiste`mol qiluvchi, shuningdek boshqa salbiy sabablari bilan ota-onalik nomiga dogʻ tushirayotganlar ham yoʻq emas.

Bu kabi noxushliklarning oldini olish yoki ularga muayyan ta`sir choralari koʻrish maqsadida qonunchiligimizda bir qator tarbiya-viy choralar nazarda tutilgan. Ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni huquqlarini himoya qilish qilish ana shunday choralar jumlasiga kiradi.

Voyaga etmagan bolalarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida sud ishda aniqlangan holatlarga muvo-fiq, Oila kodeksining 44-moddasi 2-qismidagi qoidani hisobga olgan holda da`vo qoʻzgʻatilgan yoki

⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003 йил.

qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar, bolalar tarbiyasi uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishi mumkin⁸.

Sud ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirgan va er xotinga yara-shish uchun muhlat berganda, FPKning 263-moddasi va Oila kodeksi-ning 112-moddasiga ko'ra ish ko'rilgunga qadar bolalar ta'minoti uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishga haqli.

Ma'lumki, Oila huquqi oila a'zolari o'rtasida vujudga kela-digan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi va uni hayotga to'g'ri tatbiq etilishini huquqiy jihatdan mustah-kamlab beradi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tushunchasi ham oila huquqining muhim huquqiy institutlaridan hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalasi shunchalik bir oddiy, ahloqiy masala bo'lmay, balki rasmiy huquqiy masala sanaladi. Shu ma'noda, ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish aslini olganda, ota –ona uchun eng og'ir jazo hisoblanadi. Shu sababli, ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun ota yoki onaning, farzandlikka olgan shaxslar-ning (yoki ulardan birining) aybli harakati bo'lishi shart. Ota-onalikning har qanday majburiyatlarini bajarmaslik ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos bo'lmaydi. Shuning uchun ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona) ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni, bobo-buvi, boshqa qarindoshlarning), prokurorning, shuningdek voyaga etmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga et-maganlar bilan ishlash komissiyalar, etim bolalar va ota-ona qaramo-g'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasa-larning) da'vosiga binoan ko'riladi. Da'vo huquqshunos olim E.Egamberdievning fikricha, ya'ni nizoli moddiy-huquqiy munosa-batdan kelib chiqadaigan va muayyan protsessual tartibda ko'rish va hal qilishi uchun sud yoki

⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами. –Т.: Шарқ. 1999. 136-бет.

boshqa vakolatli organda qo'zg'atilgan talab tushunchasi bilan da`voga bo'lgan huquq tushunchasi chambarchas bog'liqdir⁹.

Ma'lumki, vasiylik va homiylik ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bolalarni ta'minlash, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyalash maqsadida belgilanadi¹⁰.

Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risi-dagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (yoki ularning biridan) aliment undirish masalasini ham hal qiladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlarini ko'rishda ota-ona (yoki ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomat-lari mavjudligini aniqlasa, bu haqda xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan prokurorga xabar berishi shart. Ayni vaqtda sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonu-niy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirma-sini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Yuqoridagi holar ota-onalik huquqidan mahrum qilish va uning huquqiy tabiatini ochib beradi.

Demak, yuqoridagilardan *birinchidan*, shunday xulosaga kelish mumkinki, ota-onalik huquqidan mahrum qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi va buning natijasida ota-ona qaramog'idjan mahrum bo'lgan bolalalarning huquqlari davlat, jamiyat tomonidan muhofaza qilinar ekan:

1.Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

2.Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasalaridan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

⁹ Э.Эгамбердиев. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. -Т.: Камалак. 1996 йил.

¹⁰ Ўзбекистон Республикасида "Василий ва ҳомийлик тўғрисида"ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 12-апрелдаги 171-сонли қарорига 2-илова. -Т.: Адолат. 1999 йил.

3.Ota-onalik huquqini suiiste`mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo`lsa, shuningdek jismoniy kuch ishlatga yoki ruhiy ta`sir ko`rsatsa;

4.Mutassil ichklikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo`lgan bo`lsa;

5.O`z bolalarining hayoti yoki sog`lig`iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog`lig`iga qarshi qasddan jinoyat¹¹ sodir qilgan bo`lsalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari mumkinligi qonunchili-gimizda belgilab qo`yilgan.

Ikkinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog`liq ishlar shunchaki oddiy, ahloqiy maishiy jarayon bo`lmay, balki sud tartibida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Sud amaliyotini o`rganish jarayonida shu narsaga amin bo`ldikki, aksari hollarda sudlar o`zlari chiqargan ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi hal qiluv qarorlarini qaytadan asossiz tiklaganliklari ma`lum bo`ldi. CHunonchi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tumani tumanlararo fuqarolik ishlari bo`yicha sudida 2005 yilda fuqaro Laptev A.M.ga voyaga etmagan farzandi Laptev A.L.ga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilish to`g`risidagi tuman prokurorining da`vosiga binoan ishni ko`rib chiqqan. Ishni ko`rish jarayonida sud guvohlarning bergan ko`rsatmalariga, A.M.Laptev yashaydigan fuqarolar yig`inining bergan ma`lumotlariga asosan Anna Mixaylovna Laptevani onalik huquqidan mahrum qilgan¹². Bunga asosiy sabab, onaning o`z bolasiga bo`lgan shafqatsiz munosaba-ti, farzandi oldida onalik majburiyatini bajarmasligi, farzandi-ni qarovsiz holda qoldirib, uni tilanchilik bilan pul topib olib kelishga o`rgatganligi hisoblanadi. Lapteva onalik huquqidan sudning hal qiluv qaroriga binoan mahrum qilinganidan bir yillar chamasi o`tib, u o`zining xulq-atvorida, oilada o`z mavqeiga ega bo`la boshlaydi, bolalari va o`g`li Andrey Laptevga nisbatan onalik mehrini va tarbiya berishni yangitdan boshlagani uchun uning onalik huquqi sud tomonidan qayta tiklanadi.

¹¹ Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судининг 2005 йил 20 майда чиқарган ҳал қилув қарори.

¹² Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судининг 2005 йил 20 майда чиқарган ҳал қилув қарори.

To'g'ri, OKning 82-moddasiga binoan ota-onalik huquqining tiklanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Unga ko'ra, ota-onalar (ulardan biri o'z xulq-atvoriini, turmush tarzini va yoki bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini) o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkinligi qat'iy qilib belgilanib qo'yilgan.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ma'lum bir muddati belgilanmaydi, u muddatsiz hisoblanadi. Qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan oilada huquqiy munosabat tugati-ladi, deb fikr beradi tsivilist olim R.Muhamedov¹³. Bizningcha, qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish oilada ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tugatmaydi. Chunki, har qanday vaziyatda, har qanday sharoitda ham bolalar o'z ota-onalaridan ta'minot olish, meros olish kabi huquqiy munosabatlarga kirisha oladilar. Lekin, ota-onalardan qaysi biri ushbu huquqdan, ya'ni, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsalar, shu farzandga nisbatan bo'lgan barcha huquqlardan mahrum bo'ladilar. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, R.Muhamedov mazkur masalaga bir tomonlama yondoshgan.

Asosiy qonunimizning 63-moddasida "Oila-jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deb yozilgan. Ma'lumki, oila jamiyatning muhim bo'g'ini sifa-tida bolalar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi ota-ona hamda farzandlar o'rtasidagi munosabat nafaqat oila qonunchiligi bilan balki jamiyatda muhim qadriyat sifatida shakllangan ahloq normalari bilan ham tartibga solinadi.

Oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan izzat-hurmati, muomala-lasi oiladagi madaniyatni ifodalaydi. Bunday oiladagi madaniyat farzandlarning yaxshi tarbiya olishlarida muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-moddasiga muvofiq er-xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar, deb ko'rsatib o'tilgan. Demak, ota-ona o'z farzandlariga nisbatan ham teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lib hisoblanadilar. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalash va kamo-lati uchun javobgar hisoblanadilar. Ular o'z

¹³ Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. -Т.: Адолат. 2000. -167 б.

bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ahloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Muqaddas Hadisi SHarifda ham "farzandlaringizni izzat-ikrom bilan birga ahloq-odobini ham yaxshilanganlar" deb xitob qilingan.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatiga xilof ravishda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalarning huquq va manfaatlari qonun bilan himoyalani, baxtiyor yoshlikni ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Bizning hayotimizda bolalarni tarbiya qilishda oilaning roliga alo-hida ahamiyat beriladi. Mamlakatning yosh fuqarosi qanday bo'lib etishishi ko'p jihatdan oilaga, ayniqsa, onaga bog'liqdir. Jamiyat-ning boshlang'ich yacheykasi bo'lgan oilada kishilar ma'naviy etuklik oladi, hayotdagi o'z o'rnini chuqur tushuna boshlaydi.

Oila kodeksining 65-moddasiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilishi, ularning g'amxo'rligidan foydalanishi, ular bilan yashash huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. SHunday ekan, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning quyidagi huquq va majburiyatlari bor:

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi;

Ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan qonuniy vakil ekanlik-lari hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari va shu kabilar qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganida, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'i-ga, ahloqiy kamolotiga zarar etkazishga haqli emas. Bolalarni tar-biyalash usullari

mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlashdan holi bo'lishi kerak.

O'z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-onalar qonunda belgilangan tar-tibda javobgar bo'ladilar.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

Ota-ona alohida yashaganlarida bolalarning qaerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolalarning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning ahloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uni kamoloti uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan berilgan bolalar va ota-onalarning huquq va manfaatlarini qonunlar bilan himoya qilinadi.

Ota-onalik huquqini suiist`emol qilish deganda bolalar manfaatlariga zid ishni tutishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilik,

spirtlik ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga undashni, uni jinoiy harakatga jalb qilishni tushunmoq kerak.

Bolaga nisbatan ota-ona emas, oilaning boshqa a`zolari shafqatsiz munosabatda bo'lsalar, ota-ona bunga qarshilik qilmasa, bu holda ota-onalik huquqi Oila kodeksining 83-moddasiga muvofiq cheklanishi mumkin.

Bolani ota-ona yoki ularning biri bilan qoldirish ota-onaga yoki ularning biriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa

surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'sa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (yoki ularning biri) bilan qoldirish oqi-batida ularning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun etarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Ota-ona yoki ularning bir o'z hulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin olti oy o'tgach, ota-onalik huquqidan mahrum etish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart bo'lib hisoblanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (onaning) yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, ya'ni, bobo, buvi, boshqa qarindoshlarning, shuningdek prokurorning, voyaga etma-gan bolalarning huquqini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga et-maganlar bilan ishlash komissiyalari, etim bolalar va ota-ona qara-mog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasa-larning) da'vosiga asosan ko'riladi. Da'vo, professor Sh. Shoraxmetovning fikricha, "huquqning yoki qonun bilan qo'riq-lanadigan manfaatning himoya qilinishi to'g'risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat qilinishi"¹⁴ hisoblanadi.

Bu erda da'vo qo'zg'atish huquqi fuqarolar, davlat manfaatlari-ni va tashkilotlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini birinchi instantsiya sudida himoya qilishning protsessual vositasi bo'lib ko'rinadi.

Ayni vaqtda, shuni ham eslatish o'rinliki, FKning 11-modda-siga binoan bir qator buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari normalanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

-huquqni tan olish;

¹⁴ Ш.Шорехметов. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. -Т.: Адолат. 2001. -149 б.

-huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buza-digan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;

-bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;

-davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

-shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;

-burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

-zararni to'lash;

-neustoyka undirish;

-ma`naviy zararni qoplash;

-huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;

-davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi¹⁵.

Bular orasida bir qator usullar, chunonchi, huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, ma`naviy zararni qoplash kabilar o'ziga xos ahamiyatga egadir. SHuningdek, ushbu usullar orasida davlat organining yoki fuqaro-larning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi kabi usullar mustaqillik davrida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlash joiz. Zero, muqaddam sobiq totalitar tuzum hukumronlik qilgan yillarda fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashning bu kabi usullari haqida umuman gap-so'z bo'lishi ham mumkin emasdi¹⁶.

Mazkur masalalarga to'xtalar ekanmiz, yana shuni ham aytmok-chimizki, bugungi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar-ning tub maqsadi – inson va uning manfaatlarini ta`minlashga qaratilgan. 1997 yilning 20 mayida

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. -Т.: Адолат. 1996. -9-10 бетлар.

¹⁶ М.Баратов. Янги фуқаролик кодекси.//Ҳаёт ва қонун. 1997. №5. -23 б.

muhtaram Prezidentimiz bir guruh huquqshunos olimlar, amaliyotchi yuristlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda uchta sub`ektga alo-hida to'xataladilar. Bular – shaxs, jamiyat va davlat. SHo'ro zamonida davlat o'z huquqini yaxshi bilgan va manfaatlarini mustahkam himoya qilgan, davlat manfaatlari jamiyat va inson manfaatlaridan doimo yuqori qo'yilgan¹⁷. Bugungi asosiy vazifa ushbu uchchala sub`ektning asosiy markaziy figurasi hisoblangan shaxs, ya`ni fuqaro manfaa-tini oliy o'ringa qo'yishdan iboratdir. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda inson va uning sha`ni, qadr-qimmati, manfaatlari oliy qadriyat hisoblanib, u dahlsizdir¹⁸.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari haqida gap ketganda, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish usuliga ham alohida to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. CHunki, biz qurayotgan jamiyat kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati saridir. Zero, bunday jamiyatda fuqarolar o'z haq-huquqlarini bilishlari, ularni reali-zatsiya qila olishlari juda muhimdir. Zero, Prezidentimiz aytgan-laridek, demokratiyaning darajasi xalq chiqarilayotgan qarorlardan qanchalik xabardorligi, uni qabul qilishda qanchalik ishtiroki hamda ijrosini ta`minlashdagi o'rni bilan belgilanadi¹⁹. YAna amaliyotga murojaat qiladigan bo'lsak, shunday manazarani guvohi bo'lishimiz mumkinki, yuqorida ta`kidlab o'tganimizdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola qaysi ota yoki onaga nisbatan mahrum qilingan bo'lsa, undan meros, ta`minot olish huquqini saq-lab qoladi. Bunga misol tariqasida, Uy-joy ishlab chiqarish eks-pluatatsiya birlashmasining da`vogarligidagi “Natali” uy-joy shirkatiga nisbatan uy-joydan chiqarish haqidagi da`vosini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi e`tirozi hisoblanadi. CHunki ushbu uy-joy voyaga etmagan fuqaro Mambetov Alisherga va uni otasi Mambetov Nurlan bilan birga yashash huquqini bergan edi. CHunki Toshkent shahar CHilonzor tumani sudining qaroriga binoan, Mambetov Alisherning onasi Mambetova Guliya onalik huquqidan mahrum

¹⁷ Каримов И.А. Юксак ҳуқуқий тафаккур – демократик жамият тақозоси. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон. 1998. -27 б.

¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг Конституциясидан. 13-модда.

¹⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон. 1997. -56 б.

qilingan bo'lib, unga tegishli bo'lgan mol-mulkka, chunonchi uy-joyga uning farzandi ham egalik qilib, foydalanish huquqiga ega ekanligi qonun asosida mavjud edi. Bu erda da`vo shundan iborat bo'ldiki, Mambetov Nurlan xotini bilan qonuniy nikoh munosabatida turgan bo'lsa-da, lekin ular alohida-alohida yashagan-liklari ma`lum bo'lgan. CHunonchi, Mambetova Guliyga onalik huquqidan mahrum qilingandan so'ng, eri o'g'lini xotining uyida yashab tarbiyasida ishtirok etishi sud tomonidan aniqlanib berilgan²⁰. SHu nuqtai-nazarda olib qaraganda, biz yuqorida ta`kidlab o'tganimiz-dek, shaxs o'zining buzilgan huquqini tiklash uchun da`vo qo'zg'atishga haqli ekanligini yana bir bora qonun asosida ko'rishimiz mumkin. Demak, bu erda uy-joy mulkdorlari shirkatining shikoyati noo`rin bo'lib hisoblanadi.

FPKning 239-moddasiga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq ishlar oila-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan turkumdagi ishlarga kiradi. YUqoridagi kodeksning 149-moddasiga binoan berilgan da`vo arizasida quyidagilar ko'rsatili-shi lozim:

ariza berilayotgan sudning nomi;

da`vogarning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va yashash joyi;

javobgarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) yashash joyi;

da`vogarning talabi;

da`vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayogan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;

arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da`vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaat-larini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruv organla-ri, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan ariza-larda, shuningdek ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili ko'rsatilishi lozim.

²⁰ Тошкент шаҳар Чилонзор туманлараро фуқаролик ишлари бўйича судининг 2005 йил 4 сентябрда чиқарган ҳал қилув қарори.

Mazkur turkumdagi ishlar sudga da`vogar tomonidan ariza top-shirilishi bilan boshlanadi. Sud`ya ishning murakkabligi va xusu-siyatiga qarab, da`vogarning arizaga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini ham javobgarlarning soniga mutanosib miqdorda taqdim etishga majbur qilishi mumkin. Arizalar sudlarda sudning raisi, uning o`rinbosari yoki sud`ya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi qo`zg`atish masalasini sud`ya hal qiladi va bu haqda sud ajrim chiqaradi.

Quyidagi hollarda sud arizani qabul qilishni rad etadi:

- ariza sudda ko`rishga tegishli bo`lmasa;
- sudning aynan o`sha taraflar o`rtasida, aynan bir predmet to`g`risida va aynan bir asoslar bo`yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoxud da`vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilish yoki taraf-larning kelishuv bitimi²¹ni tasdiqlash to`g`risidagi ajrimi mavjud bo`lsa;
- sud aynan o`sha taraflar o`rtasida, aynan bir predmet to`g`risi-da va aynan bir asoslar bo`yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo`lsa;
- taraflar o`rtasida ushbu nizoni ko`rish uchun hakamlar sudi²²ga topshirish to`g`risida shartnoma tuzilgan bo`lsa;
- ish shu suddning sudloviga taalluqli bo`lmasa;
- ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo`lsa;
- manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritish vakolatiga ega bo`lmagan shaxs bergan bo`lsa.

Sud`ya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo`zg`atganidan so`ng, ishni o`z vaqtida va to`g`ri ko`rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko`rishga tayyorlaydi. Sud`ya ishni etarlicha darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud

²¹ Дарвоке, амалдаги ФПКда илк бор тарафлар ўртасида келишув битими тузиш имконияти таъминланди.

²² Афсуски, бугуни кунда мамлакатимизда ҳакамлар суди тўла-тўқис шаклланганича йўқ. Бу борада дастлабки қадамлар қўйилмоқда (Ўзбекистон Республикаси Товар ишлаб чиқарувчилар ва тадбиркорлар палатаси (ҳозирги Савдо-саноат палатаси) томонидан ОБСЕ хомийлигида Тошкентда ўтказилган халқаро семинар тўпламидан. 2004 йил 23 март).

majlisida ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi, taraflar va protsessning boshqa ishtirok-chilariga ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ma'lum qiladi.

Fuqarolik ishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni albatta xabardor qilgan holda sudning ochiq majlisida ko'riladi. YOpiq sud majlisi qonunda nazarda tutilgan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talabi bilan yoki sudning tashabbusi bilan o'tkaziladi.

Ishda ishtirok etuvchilar qatorida prokurorning o'rnini alohida ahamiyatga egadir. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini beradi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar bundan mustasno.

FPKning 203-moddasiga ko'ra, birinchi instantsiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qarori hal qiluv shaklida chiqariladi. Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradi.

II. BOB. YOSHLARNING XUQUQIY MADANIYATI TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS TOMONLARI.

II.1. Yoshlarda huquqiy va ahloqiy, madaniyatning uzviy aloqadorligi.

«Xuquq madaniyati»-keng ko'lamli, ma'nodor tushunchadir. Uning tahlili mahsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir.²³ YOshlar xuquqiy madaniyatini o'rganish, uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o'rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. YOshlar xuquqiy madaniyati tushunchasi xuquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. CHunki yoshlar xuquqiy madaniyatiga berilgan xar qanday ta'rif ham muayyan tarixiy jixatdan uning mazmunini to'la-to'kis ochib bermaydi.

Yoshlarning xuquqiy madaniyatini muayyan-tarixiy tushunish, unda bu tushuncha tizimi va kelib chiqishi jixatidan predmetning sub'ektiv mazmunini takrorlaydi, yoshlarning xuquqiy madaniyatini ijtimoiy ong shakllaridan biri deb tushunishni istisno etmasligi u yoqda tursin, hatto taqazo etadi ham.²⁴

Yoshlar xuquqiy madaniyati tushunchasiga ta'rif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o'tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda xuquq va madaniyat tushunchalari bilan o'zaro tadqiq qilish katta o'rin tutadi deydi R. Maxmudov o'zining «Xuquq va madaniyat» nomli risolasida.²⁵ «Madaniyat atamasi» o'z xajmi va mazmuni jixatidan xilma-xil bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

²³ Исмоилов З. Хокимият ва ҳуқуқ маданияти. Хаёт ва қонун. 1998-й №7-78-б

²⁴ Тоджихонов У, Саидов Н Ҳуқуқий маданият назарияси Т2.-Т Ўз. Р ИИВ Акад. 1998

²⁵ Мащмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. Т. Ўзбекистон, 1994 йил 4-б

Masalan, bu ma'no ostida inson tomonidan vujudga keltirilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasi jamiyatning g'oyaviy xolati, uning sifati, ijodiy faoliyat va uning mahsuli, inson faoliyati va uning majmuiy turlari, jamiyatning ma'naviy xayoti va xakozolar yotadi.

Falsafiy adabiyotlarda «Madaniyat» tushunchasiga 500 dan ortiq ta'rif berilgan bo'lib, bu ko'rsatkich doim o'sib bormoqda. «Madaniyat» kategoriyasiga berilgan eng ko'p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo'lga kiritilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisi deb qarashdir.²⁶

Xuquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A. F Gramina, V. M. CHxekvadze, L. S. Yavich va boshqa mualliflarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy faoliyatning sinonim sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni xuquqiy sohada ishlatadigan bo'lsak, bunda xuquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi. Xuquqiy madaniyatni o'rganishda bunday yondashuvni E. V. Agranovskaya, E. A. Zarchenko, S. N. Kojevnikov kabi mualliflarning ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi sub'ektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda sub'ektiv-intelektual unsurlar xuquqiy sovdaxonlik, xuquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S. S. Alekseev, E. A. Lukasheva, R. K. Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin.²⁷

Biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini sub'ektning ma'naviy rivojlanish darajasi bilan bog'lab o'rganishdir. Xuquqiy madaniyatni o'rganishda, bu fikr ham o'ziga xos o'rin tutadi, chunki sub'ektning xuquqiy madaniyati darajasi xuquqiy madaniyatni tasniflashda uni o'rganishda asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Jaxon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo'lish mumkin: ya'ni antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv.²⁸

²⁶ Малая Советская энциклопедия. -Т5-М, 1959-С.238

²⁷ Алексеев С. С. Механизм и правового регулирования в социалистическом государстве. – М.-1996 г с 176

²⁸ Ковалзон М.Я Место понятие, «Культура» в системе категория исторического материализма 1976-С122.

Antropologik yondashuvda madaniyat tabiat erishgan narsalardan farqli ravishda inson tomonidan yaratilgan ne'matlarni yig'indisi sifatida tushuniladi. Sotsiologik yondashuv madaniyatni ma'naviy qadriyatlar sifatida talqin etadi.

Bu erda madaniyat ijtimoiy xayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Falsafiy yondashuvda esa madaniy xodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lmagan sof tahliliy holda ajratib ko'rsatiladi.²⁹

Yuqoridagi fikrlardan shunday savol kelib chiqadiki: madomiki, madaniyat tushunchasi umummilliy ma'noga taaluqli ekan ya'ni bir qator fanlarda qo'llanilar ekan, uning ta'rifini berishning imkoni va umuman zarurati o'zi bormi?-degan savol tug'iladi. Shuning uchun ham madaniyat va huquqning o'zaro aloqadorligini, uning birligi muammosini aniq bir madaniyatga berilgan ta'rif bilan emas, balki u yoki bu «madaniyat» tushunchasi doirasida aniqlab, uning o'ziga xos muayyan ta'rifini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Sobiq ittifoq madaniyatshunosligida eng ko'p tarqalgan madaniyat haqidagi ta'limotlardan biri bu mavzuning qadr – qimmatini tug'risida bo'lib, uni moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui yoki qadriyatlar tizimi asosida marifatga asoslangandir³⁰. Uning aloxida bilim saviyasidan tadqiqodlar yotadiki, madaniyat tushunchasi bashariyat faoliyatining ijtimoiy – tarixiy amaliyoti davomidagi jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi yakuniy majmua sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazmunini aniqlash esa, moddiy ishlab chiqarishga band bo'lgan kishilar qaytib faoliyatining xilma xil unsurlarini ko'rsatib o'tish, ularning axloqiy, siyosiy, xuquqiy, maishiy va boshqa tomonlarini qayd etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga “aksiya” – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta'limot) unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo'ladigan inson faoliyati “madaniy” yoki “madaniyatsiz” sifatida baholanadi. Ma'lumki, huquq va madaniyat o'zaro bog'liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi xamda

²⁹ Таджиханов У., Саидов А. Хуқуқий маданият назарияси. 1-том. 1998 й. 28-бет

³⁰ Кушкмна Е.И. Познание, язкк культура. М.Г.У. 1984. 40-бет.

taminotning ijtimoiy rivajlanish darajasining o'ldhovi sifatida maydonga chiqadi. SHunday qilib, madaniyat, sotsiologik ma'noga, inson o'zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta'riflaydigan mualliflarning xam fikricha qo'shilmog lozim.² YAqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to'liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs xuquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko'rsatilar edi: shaxsning o'z xuquqlarini bilishi, qonun va boshqa me'yoriy xujjatlarning mazmuni va nimaga yo'naltirilganini aniqlashi unga nisbatan xurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni xis qilish.² YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning xuquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta'rif beradigan bo'lsak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: yoshlarning xuquqiy madaniyati ularning xuquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan xurmati, xuquqiy normalarni ijro etish xayotga tadbiiq eta olish ko'nikmasi, xuquq buzarlilklarga nisbatan murosasizlik, qonunlari ijoatkorlik, xuquqiy faollik xamda tashabbuskorlik darajasidir. YOshlarni yuksak xuquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Darxaqiqat, "jamiyatga xuquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"da ham ko'rsatib o'tilganidek, yuksak xuquqiy madaniyat – demokratik taminot poydevori xamda xuquqiy tizim etukligini ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil xayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqorolarning, barcha ijtimoiy guruxlarning jiplashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi xamda betartibligini ta'minlovchi va mustaxkamlovchi omildir. Qonuniy xurmat qilish xuquqiy jamiyatining siyosiy va xuquqiy tizimdagi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri xisoblanadi.¹ Yoshlarning xuquqiy madaniyati mazmunining asosiy unsurlaridan biri, bu yuridik va majburiyatlarga sub'ektiv – ruxiy munosabat, xuquqiy faoliyati davomida ularning amalga oshirilishidir. YOshlarning xuquq va majburiyatga bo'lgan munosabat xuquqiy xayotining barcha xodisalarning baxolashda xal kiluvchi axamiyatga ega. YUridik xuquq va majburiyatlar orqali ularning madaniyat – qadriyat sifatida xuquqqa bo'lgan undagi talablarga nisbatan ruxiy munosabatini ochib beradi. YUridik xuquq va majburiyatlarga

bo'lgan sub`ektiv – ruxiy munosabat, ularni xuquqiy faoliyati orqali amalga oshirilishi talablari yoshlarning jamiyatdagi xuquqiy xodisalarga nisbatan qadriyatlarni baxolashini ochib beribgina qolmay balki madaniyatini faoliyat yurish turish bilan bog'liq tomonlarini aniqlaydi. Xuquq madaniyatga xuquq erkinlik va majburiyatlar orqali yondashib xuquqiy madaniyatning yoshlarning xuquqiy soxadagi faoliyatining muxim usullaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarning xuquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan uning o'z xuquq, erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi baxolashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi xaqida so'z yuritish joizdir. YOshlarning xuquqiy madaniyati asosi va o'ziga xos tomonlari quydagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

Birinchidan, yoshlarning xuquqiy savodxonligi, ya`ni xuquqiy bilimlarni o'zlashtirib olish, yuridik ma`lumotga esa bo'lishdir. U.Tadjixonov to'g'ri ta`kidlaganidek, yuridik savodxonlik huquqiy bilimlar alifbosini, eng oddiy normalarni bilishni, huquqiy ko'rsatmalarning murakkab labirintida adashmaslikni, barcha zarur holatlarda mutaxassisga yordam so'rab murojaat etish extiyojini o'zida shakllantirishni taqozo qiladi. CHunki bu savobxonlik uning har qanday holatda ham o'z hatti-harakatlarini belgilab olishda huquqiy talablarga muvofiq keladigan etalonlarga suyanishga imkon beradi³¹. Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma`lum bir huquqiy normalar, huquq tarmoqlari haqida ma`lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli hil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida habardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo'lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi³² va jamiyatda insonlarning hulq-atvoriga o'ziga xos ta`sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta`kidlab o'tganidek, faqat huquqni bilishgina emas, balki to'g'ri tushunish hamdir, qonun amalga oshirish vositasi bo'lib hizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy

³¹ У.Таджихонов. Агар қонун ишласа. Ҳуқуқий демократик ислохотлар. Ўз. 1997 й. 57 б.

³² Е.Н. Зорченко. Воспитание правовой культуры молодежи. Беларусь.1986. 26-б

vazifalarni bajarishdir. Ammo, yoshlarimizning qonunlarni o'zlashtirib olish darajasi pastligi bilan ajralib turadi.

O. Balzakning "Fojiamiz shundaki, hech narsani qonunlarni bilganchalik yomon bilmaymiz"-degan fikrlari bizning yoshlarimizga ham taalluqlidir.

Ikkinchidan, yoshlarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirishdir. Qonunga hurmat bilan yondoshish, bu hurmatni amalda namoyon etishning o'zi huquqiy madaniyatining oliy darajada namoyon bo'lishidir. Huquqqa hurmat – shaxs huquqiy madaniyatining muhim hususiyatlaridan biridir. Bu esa huquqning ijtimoiy qadr-qimmatini, uning ko'rsatmalarini bajarishning zarur va foydaliligini, huquq bilan qoniqqanlik tuyg'usini undagi talablarning adolatliligini, qonuniy va burchlarni amalga oshirishda faol va ijodiy munosabatni tan olishdan iborat. Huquqqa hurmat munosabati o'zida ruhiy va mafkuraviy bosqichlarni mujassamlashtiradi, deb ko'rsatadi taniqli huquqshunos olim U. Tojixonov³³. Ruhshunoslik darajasida huquqqa hurmat, huquq bilan qoniqish tuyg'usida, undagi talablarni adolatliligida namoyon bo'ladi. Qonunlarga bo'lgan hurmat-barkamol yosh avlod huquqiy madaniyatining mavjud ko'rinishidir. Huquqqa yuksak hurmat bilan qarovchi yoshlar har qanday huquqiy qoida va talablarni buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'ladi. Shuningdek, yoshlarda huquqiy javobgarlik va intizom tuyg'usi yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak. Har bir qilingan ish uchun javob berish kerakligini tushunib etish kerak, javobgarlik borgan sari mustahkamlanib eng foydali va zaruriy odamga aylanmoi lozim. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy – huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'usi bebahodir. Chunki bu tuyg'ularni qaror topishi avvalo ular tarbiya-lanayotgan oilada shakllanadi va kelajakda yoshlarga jamiyat, davlat olidi-dagi mas'uliyat, javobgarlik xis-tuyg'ularining poydevoriga aylanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlariga to'xtalib o'tsak: "Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni emas, balki, ushbu

³³ Тожионов У. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий-маънавий муаммолари. Т. Ўзбекистон Республикаси. ИИВ академияси, 1996 й. 35-36-с.

qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ xujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi”³⁴. Huquqqa yuksak hurmat bilan qarovchi yoshlarhar qanday huquqiy qoida va talablarning buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo’ladi. SHu sababdan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan tasdiqlangan “Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish milily dasturida: mamlakatimizda qonun xujjatlarini inson huquqlarini inson huquqlari sohasidagi halqaro normalar va standartlarga izchillik bilan muvofiqlashtirib borish zarur.

Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog’liq bo’lishi va undan kelib chiqishi lozim. Bunda qonunlar to’g’ridan-to’g’ri amal qilish kuchiga ega bo’lishi kerak.ijro etuvchi organlar qonun osti xujjatlarini qonunga qo’shimcha kiritish sifatida emas, balki ularning ijrosini ta`minlash uchungina qabul qilishlari mumkin, deya alohida ta`kidlagan edi³⁵.

Qonun ustivorligini ta`minlashning asosiy yo’nalishlaridan biri ham fuqarolarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, har kimda, asosan yoshlarda qonunga hurmat tuyg’usini shakllantirishdan iboratdir.

Uchinchidan, qonunga itoatkorlik masalasi. Qonunga itoatkorlik – jamiyatning ijtimoiy munosabatlari va huquqiy madaniyat rivojlanishi jarayonida shakllanib turadigan hodisadir. Qonunga itoatkorlik to’g’risida huquqning shaxs erki bilan uzviy boshqa jihatlari bo’lganidek, sobiq sovet saltanati yillarida qariyb hech nima yozilmadi. SHu boisdan hozirgacha qonunga itoatkorlik ilmiy ahloqiy va huquqiy tushuncha sifatida o’ziga munosib tadqiqotlarga ega emas.

Yoshlarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib etib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg’ularida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga qonunga ko’r-

³⁴ И.А.Каримов. “Буюк келажак сари”.-Т.Ўз.н. 1998. 127-с.

³⁵ У.Тожионов. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий маънавий муаммолари.

ko'rona itoat etish emas, balki uning moxiyatini, talab va tartiblarini ongli ravishda bajarishlari lozim. 2000yil may oyida Toshkent shaxrining bir necha Oliy o'quv yurtlarida olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra: "Nima sababdan insonlar qonunlarga amal qilishadi?" – degan savolga 39,2% respondent "Jazolanishdan qo'rqanliklari uchun" deb javob berishgan. Qolganlarning bir qismi qonunni buzish mumkin emasligi, jamiyat va odamlar uni muhokama qilishidan qo'rqishini va boshqa sabablarni ko'rsatishgan. YOshlar qonun normalariga jazolanishdan qo'rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qilishlari zarur. Bu ularning ichki e'tiqodlariga aylanmog'i lozim.

Akademik SH.Z.Urazaev ta'kidlashicha, qonunlarga rioya qilish odati chuqur anglangan ehtiyoj bo'lishi kerak. Bu ehtiyojning realligi shundaki, yosh inson muayyan huquqiy me'yorlarni bajarish chog'ida har gal qonun talablaridan bajarishdan formal zaruriyat uning asosiy ichki ehtiyojiga aylanib qolgani uchun u mazkur talablarni tegishlicha qabul qiladi³⁶. Qonunlarga rioya qilish odati haqidagi masalani ko'rib chiqqan vaqtda, uning qo'llanish sohalarini turlicha bo'lishi mumkinligini e.M.Abzalov ishida uchratamiz. Bu birinchidan, huquqning u yoki bu me'yorini bajarish odatini va ikkinchidan barcha huquqiy talablarni bajarish odatini farqlash kerak³⁷.

Yoshlarda qonunlarga itoatkorlikni shakllantirish uchun, ularda ishonch xissini qaror toptirish lozim. Agarda mansabdor shaxslarning o'zlari qonunga itoat qilmas ekanlar, bu yoshlarda qonunga bo'lgan ishonchsizlikni yuzaga keltishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari" nomli asarida, - "O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga hilof faoliyat bilan bog'liq degan mutlaqo ahloqqa zid nuqtai nazar bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va

³⁶ Ш.Уразаев. Модел закона: какой ей быт?-Т.1990.40-с.

³⁷ Э.М.Абзалов. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш муаммолари. ЮФН илмий даража учун диссерт.-Т. 2000. 72-с

huquqiy nazoratning e`tiboridan chetda qolsa ayoniqsa hayotga endigina qadam qo`yib kelayotgan yoshlarni yomon yo`lga og`diradi. Axir jamiyat va davlat uchun yosh avlodning ahloqan buzilishi va yuztuban ketishilan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o`zi?" – deb xalqimizga murojaat etdilar³⁸. YOshlar orasida huquqiy madaniyatning tarkib topishida va shakllanishida mansabdor shaxslarning hatti – harakatlari, muomala madaniyati katta ta`sir kuchiga ega. Ayrim mansabdor shaxslarning o`zlari qonunlarni mensimasligi, ko`ra bila turib uni buzishi, boshqalarga nisbatan kalondimog`lik bilan munosabatda bo`lishi yoshlarga ayniqsa, yuridik sohadagi shaxslarga huquqiy negilizm (norma va qonunlarni inkor etish)ni keltirib chiqaradi. Qonunlarga itoatsizlik xuquqbuzarlik uchun jazo muqarrarligi, qonun oldida hamma tengligini har bir yosh chuqur anglab etishi kerak. Prizedent I.A.Karimov aytganidek: "Xuquqiy davlatning belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi printsipini ta`minlashdir". Amir Temurning quyidagi so`zlarini shu o`rinda eslash joizdir: "Hokimlar va raiyatdan qaysi birining halqqa jabr – zulm etkazishini eshitsam, ularga nisbatan shariatga muvofiq odamlar o`rtasida muhokama qildim"³⁹ to`rtinchidan, yoshlarning o`zlarining olgan o`zlashtirgan huquqiy bilimlarini hayotga tadbiiq eta olishlari, yoshlar huquqiy madaniyatining o`ziga xos tomonlaridan biridir.

Yoshlarning xuquqiy madaniyat – xuquqqa doir bilimlarni shunchaki o`rganib olish emas, balki ulardan huquq – targ`ibotni va qonuniylikni mustaxkamlashga ongli suratda yo`naltirilgan amaliy faoliyatda foydalana olishidir. Agar bu bilim va ishonch yoshlarning amaliy faoliyatida yuzaga chiqmasa, u o`likdir va jonsizdir.

Beshinchidan, yoshlarda yuksak darajadagi huquqiy faollik masalasi. Huquqiy faollik shaxsni faol hayotiy pozitsiyada turishiga undovchi omillardandir. Faol hayotiy pozitsiya va fuqarolik burchiga ongli munosabat huquqiy faollikning bir-biridan ajratib bo`lmaydigan, birgalikda namoyon bo`ladigan ikki elementini

³⁸ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. Т. Ўзбекистон. 1997 й. 90-с.

³⁹ Темур тузуқлари. Б. Ахмедов. А.Аминов.-Т. Наврўз. 1992 й. 17-с

tashkil etadi. Huquqiy faollik yonlarning tashabbukorligi va ijodiy faoliyatida o'z aksini topadi. Biz yoshlarni yuksak darajada huquqiy madaniyatga ega deb aytishimiz mumkin, qachongina uning huquqiy ongi hayotga faol vazifalarni bajarishga qodir bo'lsagina. Huquqiy faoliyat yoshlarning huquqiy savodxonlik, huquq va qonunlarga bo'lgan hurmatiga tayanadi. YOshlarning ijtimoiy-huquqiy faolliklarini oshirishning muhim omillaridan biri, ularning Respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, muassasa, oliy o'quv yurtlari miqyosida davlat va jamoat boshqaruvi ishlarida faol qatnashishlari hisoblanadi. YOshlarni boshqaruvda ishtirok etishi o'ziga quyidagilarni kiritadi: davlat va mahalliy ahmiyatga molik qonunlarni muhokama va qabul qilish, turar joy, mahalla, o'quv muassasalari majlis va yig'ilishlarida ishtirok etish.

Huquqiy faollikni shaxs huquqiy madaniyatining unsurlari sifatida qarashda ilmiy adabiyotlarda turlicha fikrlar berilgan. Ammo huquqiy madaniyat muammosi bilan shug'illangan ko'plab huquqshunos olimlar huquqiy faollikka alohida o'rin berishgan⁴⁰. Hatto ayrim olimlar ijtimoiy faollikni huquqiy madaniyatning asosiy elementi sifatida qarashgan⁴¹. Ijtimoiy faollik Asosiy qonunimizda ham o'zining huquqiy asosini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 – moddasida, fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini qonunlarga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar, - deb ko'rsatilgan⁴². SHuningdek, fuqarolarning huquqiy-siyosiy faolliklarini jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita ham o'z vakillari orqali ishtirok etishda namoyon bo'ladi (32-modda). Hozirgi kunda shaxsning ijtimoiy faolligiga katta e'tibor berilmoqda. Umuman ijtimoiy faollik deganda, insonning turli sohadagi ya'ni, ishlab chiqarish, mehnat, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy sohadagi faolligi yig'indisi tushuniladi⁴³. SHuningdek, faollik va tashabbuskorlik tushunchalari ham bir-biri bilan uzviy bohliqdir. CHunki tashabbuskorlik uning asosini tashkil etuvchi faolliksiz yuzaga

⁴⁰ Е.А.Зорченко. Воспитание правовой культуры молодежи. Минск. Бел. 1986. 34-38-с

⁴¹ У.Тожиhoнов.А.Саидов.Хуқуқий маданият назарияси.ЎЗР ИИБ акад. 1998 й. Т. 46-47-с.

⁴² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.Ўзбекистон. Н.М.И.У. 2008 й.

⁴³ Н.И.Кейзеров. Политическая и Правовая культура.-М.Юрид.лит.1983 г. 167-с.

kelmaydi. SHu sababli yoshlarning faolligi huquqiy madaniyatni shakllantirishda hal etuvchi rol o'ynadi.

A.F.Nikitin huquqiy madaniyat tushunchasiga ta'rif berib uning mohiyatini ochib berar ekan, uni bino shaklida tasavvur etishni taklif etadi va bu bino 3 qavatdan iborat deb ko'rsatadi. Binoning birinchi favatiga huquqiy bilimlar va ulardan foydalana olishni joylashtiradi. Ikkinchi kavatga huquqqa bo'lgan munosabatni va nihoyat uchinchi qavatga huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlarda shaxsning faoliyati va hulq – atvorni kiritadi. Bu uying poydevorini uni ahloqiy va mafkuraviy, siyosiy qarashlar, e'tiqodlar tashkil etadi⁴⁴.(1-sxema)

YOshlarning huquqiy madaniyatini o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, ular huquqiy madaniyatida huquqiy faollik va tashabbuskorlikni ham muhim unsur sifatida qarab, A.F.Nikitik fikrini to'ldirgan holda “Huquqiy madaniyat binosi”ga 4-qavatni joylashtirishni lozim topdik.(2-sxema)

| | |
|---|---|
| Huquqiy vaziyatlarda shaxsning faoliyati, hulq-atvori | Huquqiy madaniyat |
| Huquqqa bo'lgan munosabat | Huquqiy faollik va tashabbuskorlik |
| Huquqiy bilimlar | Huquqiy vaziyatlarda shaxsning faoliyati, hulq-atvori |
| Ahloqiy, mafkuraviy-siyosiy qarash, e'tiqod | Huquqqa bo'lgan munosabat |
| | Huquqiy bilimlar |
| | Ahloqiy, mafkuraviy-siyosiy qarash, e'tiqod |

Hulosa qilib aytganda, talaba yoshlarning huquqiy madaniyati deganda – ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy

⁴⁴ А.Ф.Никитин. Что такое правовая культура?.-М. Просвещение.1988 г. 23-26-с

normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko'nikmalaridir, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasi tushuniladi.

II.2. Yoshlarda huquqiy, ahloqiy, siyosiy madaniyatning uzviy aloqadorligi.

Madaniyat inson malakalari, bilimlari, g'oyalari va hissiyotlarini, shuningdek turli ijtimoiy hodisalarda uning mustahkamlanishi va moddiy hodisaga aylanishining yig'indisi sifatida siyosiy, huquqiy jabhada o'z aksini topadi. Modomiki, siyosiy va huquqiy madaniyatning fundamental tamoyili g'oyalari turmushga tadbiiq etilar ekan, buning asos zampirida, oxir-oqibat madaniyat yotadi. YAgona madaniyat tizimining tarkibi hisoblangan huquqiy, siyosiy, ahloqiy madaniyat har doim uzviy aloqada bo'ladi. Jamiyatning o'ziga xos ma'lum madaniyat darajasi bo'lib, uning har bir a`zosida shu madaniyatning belgilari mavjud bo'ladi. Ammo biz hozirda jamiyatimiz a`zolarida, shuningdek yoshlarda siyosiy, huquqiy madaniyat belgilari to'la shakllangan deb ayta olmaymiz. Bir-biriga ko'maklashuvchi, bir-birini ta`minlovchi, bir-birini to'ldiruvchi siyosiy va huquqiy madaniyat yaxlit holda tadqiq etilar ekan, u shakl va mazmun, sabab va oqibat, imkoniyat va haqiqat sifatida maydonga chiqadi. Ma'lumki huquq ham siyosat ham o'zida yagona ijtimoiy mazmuni mujassam etadi. Siyosiy vakuum bo'lgan joyda huquqiy faoliyat ko'rsatish mumkin emas. Siyosiy madaniyat va huquqiy madaniyat davlat, demokratiya, ozodlik va mas`uliyat to'g'risidagi eng ibtidoiy tushunchalarga borib taqaladi. Bu g'oyalar hamisha dolzarb bo'lib, ijtimoiy o'zgarishlar davrida ular faqat aksiologik ahamiyatgagina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Siyosiy va huquqiy qaashlar, nazariyalar bir-biridan ajralmas bo'lib ular hamisha yonma-yon boradilar. Odamning fe'l atvori boshqaruvchilari bo'lgan siyosiy va huquqiy qarashlar qonunlarda, deklaratsiyalarda, konseptsiyalarda, nazariyalarda o'z ifodasini topadi. Siyosiy va huquqiy madaniyat o'zaro aloqadorlikda bir-birini boyitib keladi. Siyosiy madaniyatning norma va printsiplari huquqning rivojlanishiga ta`sir ko'rsatadi, chunki ular ijtimoiy hayotimizda alohida o'rin tutadi. YUqoridagi boblarda huquqiy madaniyatning mohiyati yoritib berildi, ammo siyosiy madaniyat deganda nimani tushunamiz? Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi

bo'lib, u insondagi siyosiy bilimlar, baholashlar, malakalar hamda xarakterlar darajasi, xarakteri va mazmunini tashkil etadi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi bo'lsa, siyosiy madaniyat uning o'zagidir. Ma'lumki inson o'z ongida aks etayotgan narsalarni hodisalarni qayta fikrlab tafakkur qilib, aks etayotgan narsalarni qamrab olishga qodir bo'lsagina, har qanday madaniyat ob`ektiv xarakat qiladi.

Har bir yosh avlod jamiyatning siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyatini egallaganda, o'zidan avvalgi avlodlarning ijtimoiy-siyosiy tajribalariga yondashadi va ularni o'z ongidan o'tkazadi, yaxshilarini olib, faoliyatida tadbiiq qiladi, bu bilan o'zining madaniyatini yuksaltiradi.

Yoshlarda huquqiy, siyosiy ahloqiy madaniyatni qaror toptirishda avvalo ularning dunyoqarashlarida, tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda milliy istiqlol mafkurasi ham singishi lozim. Ana shu dunyoqarash shakllangandan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy, siyosiy, ahloqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi. Chunki huquqiy, siyosiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyat demokratlashuvining asosiy kafolatlaridan biridir.

Darhaqiqat, jamiyatda aholining huquqiy, siyosiy faolligi davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtiradi. Bu haqida Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «O'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish darkor»- deb ta'kidlaydi⁴⁵. Yoshlarda siyosiy, huquqiy madaniyat qanday paydo bo'ladi? Ko'p o'qigan, nazariy bilimlarni egallagan bilan yoshlarda huquqiy, siyosiy madaniyat paydo bo'lib qolmaydi. Ularni aql-idrok, vijdon va iymon bilan

⁴⁵ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт- пировард мақсадимиздир. Т.:Ўзбекистон, 2000 й. Б-32

anglamoq lozim. Siyosiy, huq-uqiy, axloqiy bilim va qarashlardan millat vatan, tarxiiy mas`uliyatli davrlar talab imkoniyatlarini hisobga olib foydalanmoq kerak.

Asosiy qonunimizning «Siyosiy huquqlar» deb nom olgan bobining 32-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar deb ko'rsatilgan. Bunday ishtirok etishlar o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi, deyilgan. Yoshlar o'zlarining huquqlaridan foydalangan holda siyosiy madaniyatni shakllantirib boradilar. Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, Toshkent shahrida terrorizm va diniy eksterimizm holatlari bo'yicha 1999 yil 1 yanvardan 2000 yil yanvarigacha qo'zg'atilgan jinoiy ishlar jami 716 tani tashkil etadi.

Ularning 30 tasi 18 yoshga to'lmagan voyaga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilgan. SHuningdek, jinoyatlarning 332 tasi 18-25 yosh orasidagi yoshlar 190 tasi 25-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 94 tasi 30-35 yoshda bo'lgan shax`slar tomonidan sodir etilgan. Ko'rinib turibdiki bu turdagi jinoyat sub`ektlarining 72,8 % ini 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan. Bular ichida 12 ta talaba bor. Jinoyatchilarni 80% hech qaerda ishlamaydi⁴⁶. xo'sh bu xildagi salbiy holatlarning paydo bo'lishida ma`lum bir to'dalarning va qo'poruvchi guruhlarining aniq maqsadlarini amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berayotgan ob`ektiv sub`ektiv sabablarga e`tibor qarataylik:

1-dan, chet noqonuniy diniy oqimlarning yurtimizga suqilib kirib, hokimiyatni egallash maqsadida, eng iqtidorli yoshlarimizni turli yo'llar bilan o'zlariga og'dirib olishga harakat qilishlari:

-2-dan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ba`zi bir moddiy qiyinchiliklar-yoshlarimizning vaqtincha moddiy qiyinchilik tufayli noqonuniy ishlarga qo'l urishi hollari;

-o'quv maskanlarida milliy qadriyatlarimizni huquqiy-siyosiy tizimimizni targ'ib etuvchi tadbirlarning talabga javob ermasligi;

⁴⁶ Э.М.Абзалов. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш муаммолари. Т. 2007.

-4-dan, ba`zi o`quv muassasalarida o`qituvchilar va murabbiylarning talabaga nisbatan manfaatparastlik ularning ta`lim tizimiga, tarbiyaga bo`lgan qiziqishlarning pasayishiga olib kelish hollari;

-5-dan, oilada nosog`lom muhitning yuzaga kelishi, ya`ni ba`zi otalarning ma`naviy qashshoqligi oqibatida, ularga taqlid qilgan yoshlarning paydo bo`lishi;

-6-dan yoshlarning ma`naviy qashshoq do`stlar davrasiga tushib qolishi;

-7-dan, yoshlarning bo`sh vaqtlari etarli darajada e`tiborga olinmaganligi, nazoratsiz qolayotganligidir.

Jamiyatimizning buyuk oqibatini va istiqbolini ta`minlash uchun yoshlarga jamiyatning barcha jabhalarida shu jumladan oliy ta`limda ham dunyoviy va diniy bilimlarning uyg`unligini singdirish, ularda tinchlik madaniyatini shakllantirish lozim bo`ladi. 2-chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida Prezidentimiz I.A.Karimov ushbu masalaning dolzarbligini yana bir bor ta`kidlaydilar. «Xalqimizning tabiatiga mutloqo yot bo`lgan siyosiy, diniy eksterimizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug`dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak»⁴⁷. Madaniyat tushunchasini o`rganish jarayonida siyosiy, huquqiy ahloqiy madaniyatni rivojlanish darajasi bilan uning mazmunini farqlash juda muhim. Ularning mazmunini aholining ijtimoiy guruhi, jumladan yoshlar sherik bo`lgan siyosat, huquq, mafkura, axloq mazmunlari belgilaydi. Siyosiy, huquq, ahloqiy madaniyat darajasi esa jamiyatning aniq mexanizmida nomayon bo`ladigan, mazmunan boyitilgan izchil darajadir. Davlatimizda yuz berayotgan jarayonlar shu vaqtgacha an`anaviy bo`lib kelgan ilmiy izohlarni keskin o`zgartirmoqda. Masalan: inson huquqlari nuqtai nazari jihatidan baholash, yangicha yondashishlarni keltirib chiqqan holda qonunda ta`qiqlanmagan barcha narsalar jamiyat foydasiga xizmat qilishi kerak. SHu sababdan siyosiy, huquqiy ahloqiy madaniyat alohida ahamiyat

⁴⁷ И.А.Каримов. Озод ва обод Ватан Эркин ва фаровон хаёт- пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2000 й. Б-25.

kasb etmoqda, chunki ularning mazmunida insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar mujassamdir. YOshlarda siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyat yuksalishining o'ziga xos kafolatlari bo'lib ular quyidagilar hisoblanadit:

1-dan, siyosiy, ma`naviy, huquq fikrlarning ilg'or g'oyalarini o'ziga singdirilganligi,

2-dan, iqtisodning yuqori darajasi uning barqarorligi:

3-dan, qonunlarning takomillashganligi:

4-dan, qonun ustuvorligi:

5-dan, sharq mutafakkirlarining huquqiy, siyosiy, axloqiy qarashlari va g'oyalarining o'zida mujassamlashtirganligi. Yoshlar bilan bo'lgan suhbatlar, ochiq va yopiq holdagi sotsial tadqiqotlar bizga ularning huquqiy ongiga, huquqiy madaniyatiga salbiy ta`sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga imkon berdi. Bular quyidagilardir: yoshlarda umumiy dunyoqarashning torligi, hamma narsani pul bilan o'lchashi, atrofdagi salbiy fe'l-atvorli shaxslarning ta`sir etishi va boshqalar.

Ёшларга ҳуқуқий тарбия беришдан кўзланган мақсаддан бири - ҳар бир ёш инсон ҳуқуқий маданиятни ўзлаштириб олишига эришишдан иборатдир.

Ёшларни ҳуқуқий жиҳатдан тарбияланишининг шакл ва усуллари ҳар хил бўлгани билан мақсади битта. У ҳам бўлса-ёшларни жиноят содир қилишдан қайтариш, уларга қонун, жиноят, жазо нима эканлигини, жиноятнинг оқибатлари нималарга олиб келишини содда, мисоллар ёрдамида тушунтиришдан иборат. Токи, ёшлар онгида қонунларимизга ҳурмат ўйғотиб, қонун талабларига қатъий амал қилиш ва қонун-бузарликка муросасиз бўлиш туйғуси шакллансин. Худди ана шундай туйғугина комил инсон тарбиясида катта ўрин тутает.Зеро комил инсон ғояси азал-азалдан халқимизнинг эзгу орзуси, унинг маънавиятида узвий бир қисм бўлиб келади⁴⁸

Холисона фикр юриталадиган бўлинса, ота-она ўз боласини ахлоқий ва ҳуқуқий маданияти учун жамият олдида жавобгардир, Чунки, болани дунёга

⁴⁸ Қаранг Миллий истиқлол ғоясига; Асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: 2000. - 9-6.

келтиришдан кўра, уни жамиятга нафи тегадиган, соғлом эътиқодли, солих фарзанд қилиб тарбиялаш мушкулроқдир.

Шунинг учун ҳам оилада соғлом маънавий-ахлоқий муҳитни вужудга келтириш ва уни миллий ғоя руҳида мустаҳкамлаш давлат аҳамиятига молик масаладир. Негаки, ижтимоий ҳаётда юз берадиган ўзгаришлар, ундаги ютук ва камчиликлар, салбий оқибатлар, мураккабликлар ва зиддиятлар оилада ўз аксини топади.

Ўзбек оиласи ўзида кўп асрлик мустаҳкам маънавий кадрларимиз равнақ топадиган шундай масканки, унинг барқарорлиги ва мустаҳкамлиги жамиятимиз ривожининг муҳим омилларидандир. Агар оиладаги муҳит соғлом бўлса, унда камол топаётган ёш авлод қалби ва руҳига миллий истиқлол ғояларини, қонун устаслигини сингдириш учун қулай шароит яратилган бўлади.

Бизнинг миллатимизга хос бўлган муомала маданияти, меҳр-оқибат, мурувват, андиша ва ор-номус каби туйғулар нафақат тарбия вазифасини, балки, инсоний фазилатларни шаклланишида ҳам муҳим омил ролини ўтайди. Бундан ташқари, Шарқда, хусусан, Ўзбекистонда оилавий муносабатларда жамоатчилик, маҳалланинг, донишманд қарияларимизнинг фикрлари доимо эътиборга олинган. Шу жиҳатдан олиб қараганда, маънавий кадрларимиз ҳамда урф-одатларимизнинг сақланишида, авлоддан-авлодга етказилишида оила ва маҳалла тазимининг ролини алоҳида эътироф этиш мумкин.

Шу ютуқлар билан бир қаторда муаммолар ҳам мавжуд бўлиб, у ҳам бўлса ижтимоий салбий иллат бўлмиш шахсга, унинг ҳаётига қарши қаратилган жиноятларни содир этилаётганлигидир. Афсуски, бу масала ҳамон ўзининг долзарблигини йўқотгани йўқ.

Айниқса, носоғлом оилаларнинг вужудга келиши оқибатида аёллар ва вояга етмаганлар томонидан ҳар турдаги жиноятлар содир этилаётганлиги жуда ачинарли ҳолатлардандир, Носоғлом муҳитнинг вужудга келиши ўз-ўзидан маълумки, эр-хотиннинг ажралиши туфайли ёки оила аъзоларининг

доимий можаролари сабабдир. Бунинг натижаси ўлароқ, аёл ёки қиз ўзини ҳаётнинг мураккаб синовларига чидаш бера олмасдан ёмон йўللарга кириб кеташи, жиноят содир этиши табиий. Шу билан бирга бундай ҳолатнинг таъсири вояга етмаган болаларни ҳам четлаб ўтмайди. Чунки, айрим оилалардаги бетартиблик, эр-хотиннинг низоли муносабатлари туфайли болаларнинг назоратдан четда қолаётганлиги айтилиши ҳақиқат. Шунингдек, ёшлар ўртасида жиноятчилик, гиёҳвандлик, ўз жонига қасд қилиш, қолаверса уларнинг ёт оқимларга қўшилиб қолаётганлари носоғлом оила муҳити ва оилавий тарбияда йўл қўйилаётган жиддий нуқсонларга боғлиқ бўлмоқда.

Юртбошимиз Ислам Каримов 2004 йил 29 апрелдаги Парламент ХГУ-сессиясида ёшлар масаласига эътибор қаратиб: "...ҳар қандай тажовуз ва террорчилик хуружларининг олдини олиш, уларнинг мафкуравий заминини йўқотиш ва аввало, ёшларимизнинг қалби ва онги, соғлом тафаккури учун курашни тақозо этади" деб таъкидлаган эдилар.

Биз ўтказган тадқиқотлар давомида респондентларга "Оилада ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш учун нималар қилиш керак?" деган савол билан мурожаат қилдик. Респондентларнинг 30,2% "Фарзанднинг ота-она, ота-онанинг фарзанд олдидаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳақида тушунча бериш" деган мазмундаги жавобни билдирдилар. Чунки, ҳуқуқий маданият даставвал оиладаги ҳуқуқ ва мажбуриятларни тўғри англашдан бошланади. Ота-она ва фарзанд ўзаро узвий бўлган бурч ва маъсулиятни тўлақонли англаб етишлари лозим. Бунинг учун энг аввало ота-она масъулдир, қолаверса фарзандларнинг хулқи ота-оналарнинг, барча ёши улуғларнинг бир қатор ҳатта-ҳаракатлари йиғиндисидан иборатдир. Оиладаги ҳуқуқий тарбия ишларини тақомиллаштиришга жамият, давлат ота-оналарга назарий ва амалий ёрдам бермоғи лозим. Бундай ёрдам унитилса, ҳатто кечиктирилса бола ҳуқуқий-маънавий тарбияга бўлган зарурий кўникмаларидан бебаҳра қолиши мумкин.

Респондентларнинг кейинги жавобларига эътибор қаратадиган бўлсак, уларнинг 9,9% "Ўзбекистон Республикасининг ички ва ташқи сиёсати

хақида тўғри тушунча бериш лозимлиги", 8,1% эса "Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар хақида тушунча бериш керак" деган мулоҳазали фикрларни билдирганлар. Дархақиқат, бугунги кунда ёшларимизга оиладан бошлаб, фуқаролик жамияти ва демократияга асосланган давлатимизнинг аниқ мақсадларга асосланган сиёсати хақида тўғри тушунчалар бериб боришлик ҳам уларнинг ҳуқуқий онгини шакллантиришдаги муҳим омиллардан саналади.

Бугунги кундаги энг муҳим масалалардан бири ҳам ёшларни пок қалбини ҳар-хил унсур ақидалардан асраш, уларнинг зарарли ғояларидан йироқ қилишдир. Қачонки, боланинг ҳуқуқий тарбияси тўғри йўналтирилса, Ватани хақида онгли мушоҳада қилишига замин яратилсагина, ёшлар ҳар қандай ёт ғоялар таъсирини четлаб ўтишга қодир бўладилар.

Ёшларни ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари билан та-ништириш ҳам ҳуқуқий маданият сингдириш омилларидан бири ҳисобланади. Чунки, айнан милиция, суд, прокуратура ходимлари қонунчиликни қарор топтириш, юксак ҳуқуқий маданиятни, фуқаролик туйғусини шакллантириш борасида жуда кўп ишларни амалга оширадиган ташкилотлар ҳисобланади. Улар доимо фуқароларни қонунларни бузмаслик, қонун-қоидаларга амал қилишдек муқаддас тушунчаларга даъват этиб келадилар. Табиийки, қонунни менсимаслик бефарқликка, боз устига, жинойтларнинг илдиз отиб кетишига олиб келади ва аксинча, қонунга бўлган ҳурмат ҳуқуқий билимларни ўрганишга қизиқиш ўйғотади. Маълумки, жамиятимизда ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш энг аввало ҳуқуқий тарбия тизими орқали амалга оширилади. Бу тизимга умумий таълим мактаблари ва олий ўқув юртларида "Давлат ва ҳуқуқ асослари", "Инсон ҳуқуқлари" ўқув курсларини ўқитиш билан бир қаторда оммавий ахборот воситалари орқали ҳуқуқни тарғиб қилиш, давлат ва жамоат ташкилотларининг бу соҳадаги фаолиятини ёритиш каби бир қатор бошқа ташкилий шакл ва воситаларни киритиш мумкин.

Тарбиянинг барча йўналишлари каби ҳуқуқий тарбияда ҳам мунтазамлилик, ворисийлик бўлиши даркор. Ҳуқуқий тарбияни ёшлиқдан олиб бориш керак. Болалар боғча ёшидан бошлабоқ тартибни, турмуш қоидаларини ҳурмат қиладиган бўлишига эришиш зарур. Ҳуқуқий саводхонликни ёшлиқдан бошлаб ошира бориш орқали ҳуқуқий маданиятлик даражасини юксалтириш ор-номус, кадр-қиммат, инсонпарварлик каби хусусиятларини шаклланишига кўмаклашади, ахлоқимизга зид бўлган ҳатти-харакатлар, ҳуқуқ бузарлик каби иллатларни олдини олиш имконини беради.

Биз респондентларимиздан ҳуқуқий маданиятли ота-оналарнинг ижобий сифатларини аниқлаш ҳамда 2004 йилга нисбатан жорий йилда ҳуқуқий билимлари даражасини солиштириш мақсадида, уларга "Ҳуқуқий маданиятли ота-оналар қандай хислатлари билан ажралиб туради?" деган савол билан мурожаат қилдик. Респондентларнинг ўтган йилги жавоблари нисбати бўйича олсак, жорий йилда 20,2% ота-оналар (2004 йилда 19,7%ни) "Оиласидан ҳуқуқбузарлар чиқмайди", 14,5% (2004 йилда 12,8%) "Оилавий низолар бўлмай-ди" деган жавобларни кўрсатган бўлса, 2005 йилда 12,4% респондент "Бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қилади", ҳамда 10,8% "Фарзандини қонунга итоат қилишини талаб этади" дея ҳақли жавоблари билан қўшимча фикр билдиришган. Ушбу кўрсаткичлар респондентларнинг ҳуқуқий билим савиясининг бир қадар ошганлигидан далолат беради.

Биз Респондентларнинг фикрларидан келиб чикиб шуни айтаемизки, ҳақиқатдан ҳам ота-онанинг ҳуқуқий савияси кенг, ҳуқуқий маданият даражаси юқори бўлса оилада дои-мо соғлом муҳит бўлади, яъни мувозанат сақланади. Албатта бундай оиладан низо ҳам чиқмайди, ажралиш ҳолати ҳам юз бермайди ва шу билан бирга энг асосийси ҳуқуқбузарликка имкон яратилмайди.

Шунингдек, ҳуқуқий билимли ва маъри [>атли бўлган ота-она авваламбор фарзандларига Ватанига м -ҳаббатли бўлиш-ни, даставвал ўзини

колаверса бошқаларғ и.нг ҳақ-ҳуқуқла-рини ҳурмат қилишни, шу билан бирга қс нунга бўйсунушни ўргатади.

Ёшларни қонунга, ҳуқуқ меъёрларига > урмат руҳида тар-биялашда даставвал уларнинг кўз ўнгида қонуннинг усту-ворлигини юксак даражада бўлишига эриши моқ керак. Бу тар-бия иши шундай тартибда олиб борилиш керакки, қонун-ни четлаб ўтиш мумкин, деган фикр ҳеч кимнинг ҳаёлини банд этмасин.

Бу борада республикамизда олиб борилаётган тадбирларга қарамай, айрим ота-оналарнинг бепарволиги, фарзандлари-ни қаровсиз қолдириши туфайли айрим ўспиринларнинг уйдан чиқиб кетиб кўчаларда, бозорларда санқиб юриши холлари кузатилмоқца. Шундай ҳолатлар ҳам учраб турибдики, ҳатто бир оиладан икки-уч нафар фарзанд уйларида бош атиб чиқиб кетган ва уларнинг ҳеч бири уйга қайтиш-ни хоҳламайди. Аниқланганда маълум бўладики, ота уйни сотиб юборган, ичкиликка ружу қўйган, болалар эса қаерга боришини билмайди. Охир-оқибат улар халқ таълими хомийлиги ва васийлиги билан мактаб-интернатларга жойлаштирилади. Бундай болалар аслида носоғлом оилада дунёга келган бўлиб, уларнинг тарбиясига бефарқ қаралган.

Ёшларни жинойт кўчасига кириб қолаётганликларининг туб моҳияти нимада эканлигини билиш мақсадида респондентларга "Вояга етмаганлар томонидан жинойт содир этиш-нинг сабаби нимада?" мазмунидаги жорий йилги вилоятлар кўрсаткичида, 2004 йилги кўрсаткичдан нисбатан фарқли сифатида аксарият респондентлар "Оилада ота-онанинг бе-фарқлиги" (38,1%), ҳамда "ота-онанинг ажралиши туфайли боланинг қазоратсиз қолиши" (16,7%), дея ўз жавобларини билдирдилар. Кейинги, фарқли жавоб кўрсаткичларида респондентлар, "Оиладаги моддий етишмовчилик" (11%), "Маҳалладага носоғлом муҳит" (8,1%) ва "Мактабдаги тарбиянинг талаб даражасида эмаслиги" (5,4%) деб баён этдилар. Шу қаторда, ўз фикрини баён эта олмайдиган ёки атрофида бўлаётган воқеаларга бепарволарча қарайдиган респондент-лар ўртасида ўтган йилгиларга қараганда нисбат ўзгаришлар' ҳам

бўлдики, жорий йилда улар 1,6% (2004 йилда 3,6%)ни ташкил этдилар (8-жадвалга қаралсин).

Мулоҳазага ўтадиган бўлсак, юқорида ҳам таъкидланганидек бола тарбиясида аввало ота ва она муҳим рол ўйнайди. Дарҳақиқат, оилада ота-онанинг бефарқлигидан кўпчилик ёшларимиз жиноят кўчасига адашиб кириб қолмоқдалар. Бу масалага яқинроқ ёндошадиган бўлсак, аксарият ота-оналар тирикчилик қилиш, қўшимча маблағларини ошириш мақсадида туну кун елиб югуришади, улар ўзларича болаларининг келажаги учун замин яратаётгандай бўлишади, аммо фарзандларини назоратдан четда қолдириб ўзларидан йироқлаш-тираётганликларини асло сезишмади.

| Вариантлар | Самарканд | | Навоий | | Сурхандарё | | Вилоятлар | |
|--|-----------|------|--------|------|------------|------|-----------|------|
| | 2004 | 2005 | 2004 | 2005 | 2003 | 2005 | 2004 | 2005 |
| Ота ва онанинг бефарқлиги | 50 | 37,5 | 40 | 38,4 | 20 | 38,4 | 36,6 | 38,1 |
| Ота-она ўртасидаги мутасил жанжал ва тортишувлар | 8,6 | 15,6 | 17,4 | 13,8 | 18,7 | 13,8 | 14,9 | 14,4 |
| Ота-онанинг ажралиши туфайли боланинг назоратсиз қолиши. | 17,5 | 19,6 | 12,6 | 12,8 | 15,7 | 12,8 | 15,5 | 16,7 |
| Оиладаги моддий етишмовчилик | 11,3 | 5,8 | 11,5 | 15,8 | 8,3 | 15,8 | 10,3 | 11 |
| Маҳалладаги но-соғлом муҳит | 5,3 | 6,9 | 6,6 | 8,7 | 11,9 | 8,7 | 7,9 | 8,1 |

| | | | | | | | | |
|---|-----|-----|-----|-----|------|-----|-----|-----|
| Мақтаб тарбиясининг талаб даражасида эмаслиги | 3,3 | 5,8 | 2 | 5,3 | 10,6 | 5,3 | 5,3 | 5,4 |
| Болаларнинг салбий оқимларга қўшилиб қолиши | 2 | 5,9 | 6,6 | 4,2 | 9,2 | 4,2 | 5,9 | 4,7 |
| Билмайман | 2 | 2,9 | 3,3 | 1,0 | 5,6 | 1,0 | 3,6 | 1,6 |
| Фоииз | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Hozirgi kunda yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'ziga xos to'siq bo'layotgan omillar: qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi ta'sirchan mexanizmlarning to'la kuch bilan ishlamayotganligi: ayrim mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarni ko'r-ko'rona buzilishi; o'quv yurtlarida huquqshunoslik faniga kam soat ajratilganligi: ushbu fan ta'lim muassasalarida hammasida ham huquqshunos mutaxassislar tomonidan o'qitilmayotganligidadir. Huquq normalarini mukammallash-tirishda axloq katta rol o'ynaydi, huquq normalari esa uni odamlar ongiga singdirishda yordam beradi. Huquqiy, siyosiy madaniyatning ahloqiy madaniyat bilan bog'liqligi, quyidagi ahloq kategoriyalarida nomayon bo'ladi: to'g'rilik va haqqoniylik, insoniylik va ishonch, vijdon va javobgarlik hissi hamda boshqalar. Konstitutsiyaviy normalarda ham ahloqiy printsiplarni, huquqiy va ahloqiy majburiyatlar birligi mustahkamlanib qo'yilgan: 48-moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar»⁴⁹. I.A.Karimov turli fanlarning ahloqiy-huquqiy ta'sirini ishlab chiqish, vazifa va yo'nalishini aniqlash kerak degan asosli savol qo'yadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zaruratini ko'rsatadi. Huquqiy va ahloqiy ijodkorlikning ahloqiy asoslanishi va axloqni rivojlantirishda huquqning o'rna, ahloqiy va huquqiy normalarni hayotga tadbiq etishda ularning o'zaro harakatda bo'lishligi. Yuridik adabiyotda tan

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: Ўзбекистон. Н.М.И.У. 2008 й.

olinishicha huquq va ahloqning nufuzi- insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ichki munosabatidir. Darhaqiqat, huquqning mavjudligi qonunlarning moddalari va qismlarida emas, balki butun jamiyatning shu jumladan uning har bir a`zosining ongida qay darajada aks etishi bilan bog`liq. Abu Nasr Farobiy o`zining «Fozil odamlar shahri» nomli asarida ahloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to`xtalib, ahloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a`zolari bilan faoliyatda mushtarak munosib bo`lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshishini ko`p bor tilga oladi. Shuningdek, huquq va ahloqning o`zaro uzviy aloqadorligini Z.Islamov chuqur tahlil qiladilar. Huquq va ahloq o`rtasidagi nisbatlar etarli darajada murakkab, u birlik tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to`rt tarkibiy qismni o`z ichiga olishini o`z asarida ko`rsatib o`tadi⁵⁰. shu bilan birga taniqli olim «Ahloq qoidalarini buzmay turib davlat qonunini buzish mumkin emas» degan fikrlari bilan ahloq- va huquqning uzviy bog`liqligini bir so`zda ifodalaydilar⁵¹. Hozirgi kunda ahloqiy madaniyat yoshlar hayotini yuksak ijtimoiy mantiq bilan, mazmun bilan to`ldiradi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to`siq bo`luvchi hurofot va illat. Huquqiy, siyosiy madaniyat kabi ahloqiy madaniyat darajasini oshirish zarurati hozirgi sharoitda mustaqil O`zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Yoshlarning ahloqiy madaniyati mohiyati ularning individual ongini va amaliy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtda yoshlarning ahloqiy madaniyatining asosiy xususiyatlari ahloqiy bilimlar, his-tuyg`ular, e`tiqod va amaliy ishlarda nomayon bo`ladi. Huquqiy va axloqiy madaniyatni shakllantirish turli yo`nalishlarda amalga oshirilsada, quyidagilar asosiy faktor bo`lib ko`rsatiladi. 1-dan, yoshlarga huquqning ahloqiy qimmatini jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatchisi ekanligini ko`rsatish va asoslash. Huquq nafaqat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini va siyosiy tuzumini mustahkamlaydi, balki insonlarning hatti-

⁵⁰ Исломов З. Общество Государство Право Т. Адолат 1998 йил 24-28 бет.

⁵¹ Исломов З, Щусанов О, Миршамидов И.Хуқуқшунослик. Маърузалар матни. Т.: 2000 й. 47-б.

harakatini ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi, ilmiy va madaniy qadriyat sifatida nomayon bo'ladi. Huquq insonlarning ijtimoiylashuvining, ma'naviy barkamollashuvi, dunyoqarashning kengayishi, insoniyatning madaniy boyliklarini o'zlashtirishning asosiy vositasidir. Qaysidir ma'noda huquqiy madaniyatni siyosiy madaniyatning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish mumkin, chunki haqiqatdan ham siyosiy madaniyat huquqiy madaniyatga nisbatan keng qamrovli tushunchadir. U.Tadjixanov va A.Saidovlar o'zlarining «Huquqiy madaniyat nazariyasi» nomli darsligida siyosiy madaniyatga bergan ta'rifi yuqorida keltirilgan fikrimizning yaqqol dalilidir. «Siyosiy madaniyatni dunyoqarashlar maqomida ya'ni odamlarning siyosiy davlat va huquqiy tuzilmalarga bo'lgan munosabatlarni ta'riflovchi tushuncha sifatida tan olish zarur»⁵². Huquqiy madaniyat huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmida mustaqil o'rin tutadi. Ularsiz qonun yaratish ham, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish ham mumkin bo'lmaydi. Chunki huquqning mavjudligi inson bilan chambarchas bog'langandir. Ijtimoiy turmush talablari toki davlat organlarining huquq yaratish faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan odamlarning irodasi va ongi orqali o'tmaguncha yuridik normalar sifatida ifodalanishi mumkin emas. Huquqiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning ahloqiy va siyosiy madaniyatga o'xshash bo'lmagan maxsus shakli sifatida nomayon bo'lsada, ammo uncha falsafiy, siyosiy, ma'naviy qarashlar ta'sir etib turadi. Huquqiy madaniyat har bir insonga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va bilimdonlik bilan ishtirok etish, o'z xulq atvorini va faoliyatini tegishli tarzda tashkil etish imkonini beradi. Siyosiy jarayonlarda davlat va jamiyatni boshqarishda shu tariqa huquqiy madaniyat va siyosiy madaniyat o'zaro bir-biriga chambarchas bog'lanib ketadi.

Siyosiy madaniyat jamiyat har bir a'zosining siyosiy onliligi, siyosiy qobiliyati, siyosiy bilimi va ko'nikmalari bilan karakterlanuvchi faoliyatning o'ziga xos ko'rinishidir. Siyosiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning boshqa shakllari bilan shakllanib boradi. Jamiyat hayotidagi siyosiy o'zgarishlarning qonunlarda ifoda qilinishi va tartibga solinishi bilan chuqur aloqada va siyosiy

⁵² Орзих М.Ф. Личность и право. М. Юрид. 1975 с-101.

mohiyatga ega bo'ladi. Chunki qonunlar va boshqa huquqiy normalarning davlat tomonidan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uning faoliyati siyosiy mohiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat siyosiy madaniyatni o'ziga xos darajada aks ettiradi. Fuqarolik huquqida davlatning fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari, ularning huquq va burchlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini va roliga doir masalalarda siyosiy faoliyat aks etadi. Buning ma'nosi shundaki, huquqiy mazmunga ega bo'lgan masalalar yoshlar ongida siyosiyliklashadi, siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zishiga yordam beradi. O'z navbatida siyosiy madaniyatga ega bo'lgan masalalar huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanib borishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek huquqiy, siyosiy madaniyat ahloqiy madaniyat bilan ham chuqur aloqada va dialektik birlikda. Ahloqiy normalarning siyosat va huquq sub`ektlari faoliyatida nomayon bo'lishi uning siyosiy va huquqiy ong bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir yosh shaxs siyosat va huquqiy munosabatlarning sub`ekti sifatida ahloqning vijdon, burch, insoniylik, sadoqatlilik va ahloqning boshqa shular singari turlariga munosabatda bo'ladi va ularni o'zida mujassamlashtiradi. Ahloq normalarining yoshlar ongida ijtimoiylashib borishi orqali ular huquqiy siyosiy ong va madaniyatga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-ahloqiy madaniyat siyosiy va huquqiy madaniyatga qanchalik ta'sir etsa, o'z navbatida siyosiy, huquqiy madaniyat ham ma'naviy-ahloqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Siyosiy-huquqiy voqea-hodisalarning idrok qilishi, jamiyatda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan siyosatning, huquqiy munosabatlarning ahloq normalariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi yoshlarning ongli faoliyati orqali uning alohida nomayon bo'ladi.

Siyosiy, huquqiy-ma'naviy ongi va madaniyati yuqori darajada rivojlangan fuqarolar, shuningdek yoshlar yashaydigan jamiyatgina taraqqiyotning yuksak bosqichlariga ko'tarila oladi. O'zbek xalqi siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyatning manbalari, zaminlari, sharq mamlakatlari madaniyatiga borib taqaladi. Sharq nihoyatda xilma-xil bo'lsada, sharqona jamiyatlar uchun muayyan

o'xshash xususiyatlar xos ekanligini ta'kidlash lozim. Ustuvor darajada individuallikka yo'naltirilgan g'arb insoniga qarama-qarshi sharq kishisi jamoaga ma'naviy bog'liqlikni o'zida ifoda etadi. YUqorida qayd qilingan fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ahloqiy madaniyatdagi birgalikdagi harakati yagona holda bo'lib, parallel rivojlanishi emas, balki madaniyatining bu turlarini uzviy ravishda chatishib ketishi, birgalikdagi ta'siri, bir-birini boyitishi ijtimoiy boshqaruv sohasida madaniy qadriyatlar tashkil bo'lishini harakterlaydi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi- yoshlarda shaxs sifatida yuksak ahloqiy fazilatlari shakllantirishdan iboratdir. Ahloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

O'tgan asrimiz insoniyat yaratgan ko'plab yangiliklarning, texnik va madaniyat inqiloblarining, ko'plab xalqlar ozodligini guvohi bo'ldi. Ayni paytda asrimiz tarixida qonli urushlarning, zo'ravonliklarning ham o'chmas izlari qoldi. Tarixdagi ushbu xatolarning takrorlanishini oldini olish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ta'minlash maqsadida butun insoniyat oldida tinchlikni saqlashdek muhim vazifa turibdi. Er yuzining turli mintaqalarida sodir bo'layotgan, mohiyatan butun insoniyat boshiga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol. Germaniya olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, 1945-1995 yillarda, ya'ni qirg'inbarot 2-jahon urushidan keyingi 50 yillik «tinchlik hukm surgan davr»da insoniyat atiga 26 kun tinchlik nashidasidan bahramand bo'lgan ekan. Ana shu yillar davomida turli xil majorolar o'pqonida 25 mlndan 35 mlngacha kishi begunoh halok bo'lgan. Nemis olimlari o'z tadqiqotlarida millatchilik, zo'ravonlik va diniy eksterimizmning barchasi odamzodda aql, zakovat, madaniyat va ma'rifat etishmagani tufayli sodir etilgan, degan ibratli xulosani bildirishgan⁵³. XXI asrda yashar ekanmiz bugungi kunda insondan keskin sifat o'zgarishi o'z-o'zini anglab olishni talab qilmoqda. Tinchlik madaniyati va zo'ravonlikka qarshi harakatga jahonning turli burchaklarida turli darajada

⁵³ Ш.Фахриддинов. Ижтимоий таъдидни англаш зарурлиги. Тафаккур. 1999 й, № 3, Б-105

faoliyatlar olib borildi. Tinchlikni targ'ib etuvchi, zo'ravonlikka qarshi kurashuvchi, ijtimoiy haqiqatni o'rnatish uchun harakat qilgan davlat arboblari va nomayondalarini ko'plab keltirib o'tishimiz mumkin. Ular qatoriga Maxatmagandi Martin Lyuter King, Nel'son Mandella, Albert SHveytser, Danlo Dol'chi, Mat' Tereza va boshqa minglab tinchliksevarlarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston o'z istiqlolining birinchi kunidanoq jahon hamjamiyati oldida tinchlik madaniyatini namoyish qilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida I.A.Karimovning 1993 yil BMTning 48 va 1995 yil 50 sessiyalarida, 1994 yil EHXT sessiyasida, 1996 yil Lissabondagi sammitda, BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikka asoslangan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi seminarida, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan ozod hududni tashkil etish to'g'risidagi anjumanida, 1996, 1998 yillar YUNUSKO ijroiya kengashining sessiyalarida, markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlararo Kengashining majlislarida, iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (EKO) sammitlarida, davlat tashriflarida va boshqa nufuzli yig'ilishlarida so'zlagan nutqlarida o'rta tashlangan fikrlari yurtimizda, mintaqamizda rivojlanishni tinchlikni ta'minlovchi barqaror tayanchga aylantirdi. I.Karimov 1996 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan YUNUSKO Ijroiya Kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida BMTning tinchlik siyosatini qo'llab-quvvatladilar. «O'zbekiston YUNUSKO bosh direktorining o'ning nizomidagi asosiy qoidalar: kishilar ongiga tinchlik g'oyasini singdirish hamda barqaror taraqqiyotga ko'maklashishga sodiqligini saqlab qolishiga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab quvvatlaydi»⁵⁴. Insonlar ongida tinchlikni saqlash uni himoya qilish g'oyasini qaror toptirish maqsadida BMT va uning ixtisoslashgan Kengashlari ushbu masalaga e'tiborni qaratmoqda. Ayniqsa BMTning YUNESKO kengashi bu sohada o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Tinchlik madaniyati g'oyasi 1-marta 1989 yil bo'lib o'tgan. «Tinchlik- odamlar ongida» mavzusidagi xalqaro Kongressda ilgari surilgan edi. Hozirgi kunda YUNESKO tomonidan tinchlik madaniyati dasturi keng yo'lga qo'yilmoqda. 1995 yilda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh Konferentsiyasining 28-sessiyasida qabul

⁵⁴ И.Каримов. Маънавий юксалиш йылида. Т.Ўзбекистон. 1998 йил Б-254

qilingan 1996-2001 yillarda o'rta muddatli strategiya to'g'risida qabul qilingan 012 rezolyutsiyani eslatib, unda XX asr oxirida asosiy vazifa urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga o'tishning boshlanishini e'lon qilgan edi. BMT tomonidan yangi asrimizning 1 yili ya'ni 2000 yil Xalqaro tinchlik madaniyati yili deb e'lon qilinda va uni o'tkazishdagi etakchi rolni YUNESKOga yukladi.

Tinchlik madaniyati va a'zo davlatlarning YUNESKO faoliyati bilan bog'liq Dekloratsiyasini ko'rib chiqish uchun YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasining yakuniy majlisi 1998 yil 6 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tdi va unda «Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a'zo davlatlardagi faoliyati» to'g'risida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda «a'zo davlatlar» BMT tizimi muassasalari, boshqa hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarga xalqaro tinchlik madaniyati yilini 2000 yilda xotirada qoladigan tadbirlar bilan nishonlash, uni yaxshi o'tkazish uchun hozirdanoq barcha choralarni ko'rishni taklif etadi va bu bilan bardoshlilik va bir-birini tushunish, qashshoqlik va begonalik bilan kurashish qadriyatlarini tasdiqlanadi. Bu esa eng avvalo, ayollar va yoshlarga foyda keltiradi» deyilgan⁵⁵.

Davlatimiz Prezidenti I.A.Karimov YUNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasining 155-yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqida tinchlik madaniyatini qat'iy qo'llashini izhor etib, «Mening nazarimda, tinchlik madaniyati g'oyasi XXI asrdagi umuminsoniy taraqqiyot falsafasining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya bugun ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish yo'lida xalqlarni birdamlik va hamkorlikka da'vat etishi lozim» dedilar. Mamlakatimizda turli dinlarning totuvlikda yashab kelganini, buning uchun esa barchaning birgalikda yashash imkoniyati borligi tasdig'i ekanini eslatib, «kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi» dedilar⁵⁶.

Ushbu xalqaro hujjatning Toshkentda qabul qilinishining O'zbekiston uchun olamshumul ahamiyatga egadir. Chunki bu mamlakatimizning tinchliksevarligi va tinchlik yo'lida olib borayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ladi. «Tinchlik» va

⁵⁵ Toshkent Deklaratsiyasi. Xalq s'uzi. 1998 yil 13 noyabr.

⁵⁶ I.A.Karimovning YUNESKO ijroiya kengashining 155-yakunlovchi majlisida s'uzlagan nutqi. Xalq s'uzi, 1998 yil 7 noyabr.

«madaniyat» soʻzlari barchamizga tanish boʻlgan atamalardir. Ammo ularning uygʻunlikda «tinchlik madaniyati» koʻrinishida aks etishi qanday maʼnoni anglatadi? Bu savolga tinchlik madaniyatiga bagʻishlangan Dekloratsiyasida quyidagicha izoh beriladi: tinchlik madaniyati adolat va demokratiyaga, bardoshlilik va birdamlik, zoʻrlikni rad etuvchi va janjallar boshlanmasdanoq oldini olish, muammolarni muloqot va muzokaralar yoʻli bilan hal etuvchi, har bir kishining oʻz jamiyati ichki rivojida barcha huquq va imkoniyatlaridan toʻliq hajmda amalga oshishini taʼminlaydigan madaniyatdir.

Tinchlik madaniyati muammosi oʻz ichiga davlatlararo, xalqlararo, millatlararo, shuningdek davlat ichidagi turli guruhlar orasidagi, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, millati, jinsi, madaniyati va dini turlicha boʻlgan insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Tinchlik madaniyati doimiy harakatdagi, keng qamrovli, koʻp oʻlchamli va ochiq tushunchadir. Uning zamirida dunyoga keng qarash yotadi. U zoʻrlik va qurolli toʻqnashuvlarni oldini olish, tinchlik oʻrnatish, inson huquqlari hurmatini taʼminlash, demokratiyaning chuqurlashtirish va mustahkamlash bilan bogʻliq tushunchadir. Tinchlik madaniyati muammosini tahlil qilish va echish quyidagilarni nazarda tutadi.

-1-dan, tinchlik madaniyatini hayotga tadbiq etish inson faoliyatining barcha asosiy qirralarini oʻz ichiga oladi va iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ruhiy, pedagogik va boshqa fanlarning toʻqnashuvi hamda kelishuvini nazarda tutadi. Boshqacha soʻz bilan aytganda tinchlik madaniyatini umumlashtiruvchi kontsepsiyani ishlab chiqish fanlararo tadqiqotni talab qiladi;

-2-dan, tinchlik madaniyatining keng matematikasini ishlab chiqishda olimlarning xalqaro hamkorligining tizimini yaratish lozim va unga boshqa ilmiy fikrlari nomayondalarini ham jalb etish zarur⁵⁷;

-3-dan, madaniyat kotegoriyasining koʻp qirraligining oʻzi ham bu ishda davlat arboblari, partiya etakchilari, jamoatchilik harakatining faollarini ham bu ishga ishtirokini kengaytirishni talab qiladi;

⁵⁷ Общественные перемены и культуры Мир-М Все Мир- с 57.

-4-dan, ilm-fan va siyosat o'rtasidagi bo'linishni yo'qotish zarur. +isqa qilib aytganda, tinchlik madaniyati qadriyatlarini qaror toptirishda ilm-fan, siyosat, xalq ommasining jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro ittifoqini, birligini amalga oshirmoq darkor.

Asosiy e'tibor tinchlik madaniyatining qat'iyligiga qaratilishi lozim, ya'ni jamiyat rivojlanishining doimiy harakterli belgilaridan biri bo'lib qolishi kerak. SHuningdek, bu erda bir tomondan fuqarolik jamiyatining turli darajadagi davlat nodavlat institutlari, tashkilotlari rivojlanishi bilan bog'liq tinchlik madaniyatini yaratishning siyosiy tomoni va ikkinchi tomondan esa, individual tarbiyaga qaratilgan psixologik va ta'lim faoliyati aspektari muhimdir.

1995 yil YUNESKOning mas'ul xodimlaridan professor Devid Adamsning nashr qilgan ishi tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif quyidagi xulosalarga keladi:

- ✓ Tinchlik madaniyati- murakkab qarashlar va qoidalar yig'indisi bo'lib, u amaliyot asosida rivojlanadi va kengayadi;
- ✓ Tinchlik madaniyatini targ'ib etishda ayollar ishtiroki juda muhim ahamiyat kasb etadi;
- ✓ Erkin axborot almashinuvi- tinchlik madaniyatining muhim elementi hisoblanadi;
- ✓ Tinchlik madaniyati uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u ma'lum bir tizimga solinishini talab etadi;
- ✓ Tinchlik madaniyati urushlar muzokarani hal qiluvchi vosita bo'lmagan sharoitdagina ravnaq topishi mumkin.

Tinchlik madaniyatini shakllantirishda qonun ishlab chiqish ta'lim tarbiyaviy va boshqa sohalardagi islohotlarning o'rni beqiyosdir. Ammo bu chora-tadbirlar etarli emas, buning uchun tinchlik madaniyati odamlar e'tiqodida va ishonchida shakllanib, etilib borishi lozim. Bu uzoq davom etadigan ko'p qirrali jarayonda yoshlarni ushbu ruhda tarbiyalash asosiy o'rinda turadi. O'zbekiston tarixiy merosi boyliklaridan va demokratlashtirish va tinchlik ruhida o'zining madaniy qadriyatlarini saqlash va ko'maytirish xohishidan hamda o'zining tinchlik

madaniyatini tiklashga, ko'maklashishga intilishlarini yanada mustahkamlagan holda tinchlik madaniyati yilida O'zbekistonda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1-dan, tinchlik madaniyati yilini muvaffaqiyatli yakunlash maqsadida konseptsiya ishlab chiqish:

2-dan, mamlakatimizda tinchlik madaniyati mafkurasini keng yoyish, aholi o'rtasida asosan yoshlarda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyatini qaror toptirish:

3-dan, jamiyatda haqiqiy madaniyatni va o'zaro hamkorlikni qaror toptirishd fuqarolik jamiyatiga xos institutlarni rivojlantirish, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlash:

4-dan, O'zbekistonda «Jamiyatda tinchlik madaniyatini shakllantirish to'g'risida milliy dastur» qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu dasturni ishlab chiqishda xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Sal'vadorda Tinchlik madaniyati to'g'risida milliy dastur qabul qilingan va unda ko'rsatilgan vazifalar hozirgi kunda amalga oshirilib kelinmoqda.

YUqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

-Xalqaro tinchlik madaniyati yilining maqsad va vazifalari bilan jamoatchilikning xabardor qilib borish, YUNESKOning ushbu sohaga bag'ishlangan loyixa dasturlarini amalga oshirishdagi tajribalarini ommaviy axborot vositalari bilan tanishtirib borish:

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlab ilmiy-amaliy anjumanlar, maslahatxonlar, davra suhbatlari ommaviy munozaralar tashkil etish va unda xalqaro tajribalardan keng foydalanish;

-aholini, ayniqsa yoshlarni har xizmatchilarni tinchlik, demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashning yahlit tizimini shakllantirish;

-mamlakatimiz tadqiqotlarini tinchlik madaniyati dasturlarini amalga oshirishga jalb etib ularni xalqaro hamkorlikda ish olib borishini yo'lga qo'yish.

Insonlar ongida tinchlikni saqlash fikrini qaror toptirishda, ularda tinchlik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi shunda ko'rinadiki, mamlakatimizning, butun jahonning ertangi kuni, hayoti yoshlar qo'lida bo'ladi. Agar ularda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyati shakllanmagan bo'lsa, er yuzida tinchlikni saqlash, zo'ravonlikka qarshi kurash muammosi o'z echimini topa olmaydi. SHu sababli yoshlarimiz XXI asrga tinchlik madaniyati bilan kirib borishlari lozim.

Yoshlarda tinchlik madaniyati ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyat shakllangan bo'lsagina qaror topishi mumkin. CHunki insonlarda shakllangan har qanday madaniyatning negizida tinchlikka etaklovchi maqsad yotadi, aksincha, tinchlik, totuvlik bo'lmagan joyda esa madaniyatning hech qanday ko'rinishi shakllanmaydi va rivoj topmaydi. YUqoridagi fikrlarimiz madaniyatning turli ko'rinishlari bir-birini to'ldirib, bir-biriga yordam berib, parallel rivojlanibgina qolmasdan, balki uzviy alohida bo'lishini ko'rsatmoqda.

Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishda asosiy e'tibor ularda inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilishi lozim. Unda inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt va boshqa shunga o'xshash hujjatlarning asosiy printsiplaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

-yoshlar ongida tinchlikni saqlash g'oyasini qaror toptirish hamda tinchlik qaror toptirish hamda tinchlik madaniyatini shakllantirish vazifasini hal etishda ta'lim tarbiya sohasi etakchi o'rin tutmog'i lozim. Bunga nafaqat ta'limtizimi muassasalari, balki keng jamoatchilik institutlari ya'ni oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalarini ham jalb etish.

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalar, darsliklarni yaratishni yo'lga qo'yish;

-YUNESKO va boshqa ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tomonidan nashr etilayotgan adabiyotlarni yoshlarga etkazish, ularni tarjima qilish;

-Yoshlarni inson huquqlari va demokratiya, tinchlikni saqlash mavzusida o'tkazilayotgan turli tadbirlar, seminarlar, konferentsiyalarga qatnashishlarini tashkil etish, tadbir yakunlari, materiallari bilan ularni tanishtirib borish;

-Yoshlar bilan urush qatnashchilari o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish kerak, qaysini adolatsizlik, zo'ravonlikning tirik guvohlari, jabrlanuvchilari bilan yuzma-yuz uchrashuvlar yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllanishga yordam beradi;

-«Yoshlar va O'zbekistonda tinchlik madaniyati» shiori ostida maxsus loyihalar ishlab chiqib, tinchlikni saqlashda yoshlar faoliyatini oshirishni yo'lga qo'yish lozim.

-Yoshlarni tinchlik madaniyafti va zo'ravonlik ruhida tarbiyalashda turli ilg'or texnikaviy kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinchlikni targ'ib etuvchi fil'mlar, videoo'yinlar, radio va teledasturlarni yanatish darkor. Vaholanki, hammamizga ma'lum hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari aholi namoyish qilayotgan mantiqsiz, zo'ravonlikka asoslangan fil'mlar, axborotlar tarqalmoqda. Buni esa yoshlar zo'ravonlik hayotda bo'lishi tabiiydek qabul qilmoqda, ular maqsadga zo'ravonliksiz etishib bo'lmaydi degan tushunchalar shakllanmoqda.

-yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, ta'lim sohasi xizmatchilari, yoshlar va ayollar tashkilotlari birgalikda, hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Ushbu hamkorlikka xalqaro tashkilotlarni ham jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Mustaqillik yillari davomida mamlakatda bolalar huquqlari to'g'risidagi milliy qonunchilik tizimi yaratildi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Oila kodeksi; Fuqarolik kodeksi; Mehnat kodeksi; Ma'muriy javobgarlik haqidagi Kodeks; Jinoiy kodeks; Fuqarolik to'g'risidagi Qonun; Ta'lim haqidagi Qonun; Fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish Qonuni; Nogironlarning ijtimoiy himoyalanganligi haqidagi Qonun va boshqalar.

Shuningdek, bolalar huquqlari va manfaatlari bilan nohukumat tashkilotlar ham shug'ullanib kelmoqdalar. Bular: "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro nodavlat jamg'armasi, "Sen yolgiz emassan" respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla", "Ekosan" jamg'armalari, "Kamolot" ijtimoiy yoshlar harakati, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi va boshqalar.

Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish huquqiy demokratik davlat barpo etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoyalashga yo'naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda: milliy qonunchilikka bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro-huquqiy me'yorlarni implementatsiyasi qilish; mamlakatda bolalar huquqlarini ta'minlashning qonuniy asoslarini yaratish va takomillashtirish, bolani rivojlantirish va muhofazalash buyoicha milliy dasturlarni ishlab chiqish; bola huquqlari haqidagi Konventsiya buyicha milliy ma'ruzalar tayyorlash; bolalar huquqlarini ta'minlash buyicha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, YUNISEF, BMT Bola huquqlari buyicha Qo'mitasi bilan hamkorlik qilish.

Bugungi kunda o'z safiga bolalar va yoshlarni birlashtirgan madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy himoya sohasidagi 452 ta tashkilot ish yurityapti. Muhim e'tibor bolalar sportini rivojlantirishga qaratiladi. Jismoniy tarbiya bo'yicha bolalar va o'smirlarni ommaviy jalb etishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari tibbiy xizmat va bolalarni ijtimoiy ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar har yili dispanserizatsiyadan o'tkaziladi, kasalligi aniqlanadi va ularni sog'lomlashtirish ishlari amalga

osHIRiladi. eng muhimi va diqqat-e`tiborni bolalarga ta`lim berishga qaratiladi. Ta`lim sohosi navbatdagi isloh qilish bosqichi sifatida 2004-2009 yillarga mo`ljallangan asosiy maqsadi boshlang`ich va o`rta ta`lim sifatini yaxshilashni oshirish hisoblanmish maktab ta`limini rivojlantirish Dasturi qabul qilingan.

Respublikamizda yashayotgan aholining qariyb 65%ni yoshlar tashkil etadi. SHu munosabat bilan yoshlarni ishga jalb etish buyicha ancha kamchiliklar ko`zga tashlanmoqda. YOshlarni bo`sh vaqtlarini unumli o`tkazishni to`g`ri yo`lga qo`yilmaganligi oqibatida Respublikamizda o`tgan yilning 12 oyida voyaga etmaganlar tomonidan 1315 ta og`ir, 294 ta o`ta og`ir jinoyat, 37 ta qotilik, 66 ta nomusga tegish, 1722 ta o`g`irlik, 158 ta talonchilik, 48 ta bosqinchilik, 35 ta tovlamachilik va boshqa jinoyatlar sodir etilgan. Voyaga etmaganlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini umumiy yoki kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyaoarida o`tashi bekor qilinib, ular jazoni faqat tarbiya koloniyasida o`taydigan bo`ldi. Bu bilan voyaga etmay turib jinoyat sodir qilgan shaxslarni tarbiyalashda ularni koloniyaning salbiy ta`siridan saqlashning imkoniyati yaratildi.

Voyaga etmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta`minlash sudning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqida ishlar bo`yicha sud amaliyoti to`g`risida»gi, «Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko`rish amaliyoti to`g`risida»gi «gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta`minlashga oid qonunlarni qo`llash bo`yicha sud amaliyoti to`g`risida»gi, «dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarni qo`llashning ayrim masallari to`g`risida»gi, «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to`g`risidagi» bir qator qarorlari qabur qilingan.

O`zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirilishi sharoitlarida mamlakat aholisining katta qismini tashkil etadigan yosh avlod ijtimoiy qayta o`zgarishlarning asosiy sotsial sub`ekti hisoblanadi (30 yoshgacha bo`lganlar ulushi mamlakat umumiy aholisining 65 foizini, shu jumladan 18

yoshgacha bo'lganlar 50 foizini tashkil etadi). Mustaqillik yillarida yoshlar O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarda faol rol o'ynay boshladilar. Jamoatchilik fikri so'rovi jamiyatda yoshlarning yangi vaziyatga moslashishi jihatidan anchagina siljishlar yuz berayotganligini qayd etadi (yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi, uning tarixi va an'analarini chuqurroq o'rganishga intilish, Vatanni himoya qilishga tayyorlik tuyg'usi yuqori darajada rivojlangan, ta'lim olish, bo'sh vaqtni mazmunli va maroqli o'tkazish ishtiyoqi, ayniqsa sport bilan shug'ullanish xohishi o'sgan). Biroq yoshlarning yangi bozor sharoitlariga moslashishi muammosi hamon dolzarb bo'lib turibdi.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan jamoatchilik fikri so'rovi mamlakatda yuz berayotgan jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga daxl qiladigan jarayonlar ijtimoiy yo'nalishlarning almashishiga va an'anaviy qadriyatlarning qayta baholanishiga olib kelganligini ko'rsatadi. Ham ijtimoiy, ham shaxsiy ustuvorliklar tobora ahamiyatliroq bo'lib bormoqda. Bu xulosaga O'zbekiston yoshlarining ustuvor hayotiy qadriyatlarini aniqlash asosida kelindi. Huquqiy, siyosiy madaniyatning ahloqiy madaniyat bilan bog'liqligi, quyidagi ahloq kategoriyalarida nomayon bo'ladi: to'g'rilik va haqqoniylik, insoniylik va ishonch, vijdon va javobgarlik hissi hamda boshqalar. Konstitutsiyaviy normalarda ham ahloqiy printsiplarni, huquqiy va ahloqiy majburiyatlar birligi mustahkamlanib qo'yilgan: 48-moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar»⁵⁸. I.A.Karimov turli fanlarning ahloqiy-huquqiy ta'sirini ishlab chiqish, vazifa va yo'nalishini aniqlash kerak degan asosli savol qo'yadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zaruratini ko'rsatadi. Huquqiy va ahloqiy ijodkorlikning ahloqiy asoslanishi va axloqni rivojlantirishda huquqning o'rna, ahloqiy va huquqiy normalarni hayotga tadbiiq etishda ularning o'zaro harakatda bo'lishligi. Yuridik adabiyotda tan olinishicha huquq va ahloqning nufuzi- insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ichki munosabatidir. Darhaqiqat, huquqning mavjudligi qonunlarning moddalari va qismlarida emas,

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.O'zbekiston. N.M.I.U. 2008 y.

balki butun jamiyatning shu jumladan uning har bir a`zosining ongida qay darajada aks etishi bilan bog`liq. Abu Nasr Farobiy o`zining «Fozil odamlar shahri» nomli asarida ahloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to`xtalib, ahloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a`zolari bilan faoliyatda mushtarak munosib bo`lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshishini ko`p bor tilga oladi. Shuningdek, huquq va ahloqning o`zaro uzviy aloqadorligini Z.Islamov chuqur tahlil qiladilar. Huquq va ahloq o`rtasidagi nisbatlar etarli darajada murakkab, u birlik tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to`rt tarkibiy qismni o`z ichiga olishini o`z asarida ko`rsatib o`tadi⁵⁹. shu bilan birga taniqli olim «Ahloq qoidalarini buzmay turib davlat qonunini buzish mumkin emas» degan fikrlari bilan ahloq- va huquqning uzviy bog`liqligini bir so`zda ifodalaydilar⁶⁰. Hozirgi kunda ahloqiy madaniyat Yoshlar hayotini yuksak ijtimoiy mantiq bilan, mazmun bilan to`ldiradi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to`siq bo`luvchi hurofot va illat. Huquqiy, siyosiy madaniyat kabi ahloqiy madaniyat darajasini oshirish zarurati hozirgi sharoitda mustaqil O`zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Yoshlarning ahloqiy madaniyati mohiyati ularning individual ongini va amaliy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtda Yoshlarning ahloqiy madaniyatining asosiy xususiyatlari ahloqiy bilimlar, his-tuyg`ular, e`tiqod va amaliy ishlarda nomayon bo`ladi. Huquqiy va axloqiy madaniyatni shakllantirish turli yo`nalishlarda amalga oshirilsada, quyidagilar asosiy faktor bo`lib ko`rsatiladi. 1-dan, Yoshlarga huquqning ahloqiy qimmati jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatchisi ekanligini ko`rsatish va asoslash. Huquq nafaqat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini va siyosiy tuzumini mustahkamlaydi, balki insonlarning hatti-harakatini ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi, ilmiy va madaniy qadriyat sifatida nomayon bo`ladi. Huquq insonlarning ijtimoiylashuvining, ma`naviy barkamollashuvi, dunyoqarashning kengayishi,

⁵⁹ Исломов З. Общество Государство Право Т. Адолат 1998 йил 24-28 бет.

⁶⁰ Islomov Z, Husanov O, Mirhamidov I. Huquqshunoslik. Ma`ruzalar matni. T.: 2000 y. 47-b.

insoniyatning madaniy boyliklarini o'zlashtirishning asosiy vositasidir. Qaysidir ma'noda huquqiy madaniyatni siyosiy madaniyatning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish mumkin, chunki haqiqatdan ham siyosiy madaniyat huquqiy madaniyatga nisbatan keng qamrovli tushunchadir. U.Tadjixanov va A.Saidovlar o'zlarining «Huquqiy madaniyat nazariyasi» nomli darsligida siyosiy madaniyatga bergan ta'rifi yuqorida keltirilgan fikrimizning yaqqol dalilidir. «Siyosiy madaniyatni dunyoqarashlar maqomida ya'ni odamlarning siyosiy davlat va huquqiy tuzilmalarga bo'lgan munosabatlarni ta'riflovchi tushuncha sifatida tan olish zarur»⁶¹. Huquqiy madaniyat huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmida mustaqil o'rin tutadi. Ularsiz qonun yaratish ham, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish ham mumkin bo'lmaydi. Chunki huquqning mavjudligi inson bilan chambarchas bog'langandir. Ijtimoiy turmush talablari toki davlat organlarining huquq yaratish faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan odamlarning irodasi va ongi orqali o'tmaguncha yuridik normalar sifatida ifodalanishi mumkin emas. Huquqiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning ahloqiy va siyosiy madaniyatga o'xshash bo'lmagan maxsus shakli sifatida nomayon bo'lsada, ammo uncha falsafiy, siyosiy, ma'naviy qarashlar ta'sir etib turadi. Huquqiy madaniyat har bir insonga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va bilimdonlik bilan ishtirok etish, o'z xulq atvorini va faoliyatini tegishli tarzda tashkil etish imkonini beradi. Siyosiy jarayonlarda davlat va jamiyatni boshqarishda shu tariqa huquqiy madaniyat va siyosiy madaniyat o'zaro bir-biriga chambarchas bog'lanib ketadi.

Siyosiy madaniyat jamiyat har bir a'zosining siyosiy onliligi, siyosiy qobiliyati, siyosiy bilimi va ko'nikmalari bilan harakterlanuvchi faoliyatning o'ziga xos ko'rinishidir. Siyosiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning boshqa shakllari bilan shakllanib boradi. Jamiyat hayotidagi siyosiy o'zgarishlarning qonunlarda ifoda qilinishi va tartibga solinishi bilan chuqur aloqada va siyosiy mohiyatga ega bo'ladi. Chunki qonunlar va boshqa huquqiy normalarning davlat tomonidan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uning faoliyati siyosiy mohiyatga

⁶¹ Орзих М.Ф. Личность и право. М. Юрид. 1975 с-101.

ega ekanligi bilan belgilanadi. SHuning uchun ham huquqiy madaniyat siyosiy madaniyatni o'ziga xos darajada aks ettiradi. Fuqarolik huquqida davlatning fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari, ularning huquq va burchlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va roliga doir masalalarda siyosiy faoliyat aks etadi. Buning ma'nosi shundaki, huquqiy mazmunga ega bo'lgan masalalar Yoshlar ongida siyosiyliklashadi, siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zishiga yordam beradi. O'z navbatida siyosiy madaniyatga ega bo'lgan masalalar huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanib borishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek huquqiy, siyosiy madaniyat ahloqiy madaniyat bilan ham chuqur aloqada va dialektik birlikda. Ahloqiy normalarning siyosat va huquq sub`ektlari faoliyatida nomayon bo'lishi uning siyosiy va huquqiy ong bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir yosh shaxs siyosat va huquqiy munosabatlarning sub`ekti sifatida ahloqning vijdon, burch, insoniylik, sadoqatlilik va ahloqning boshqa shular singari turlariga munosabatda bo'ladi va ularni o'zida mujassamlashtiradi. Ahloq normalarining Yoshlar ongida ijtimoiylashib borishi orqali ular huquqiy siyosiy ong va madaniyatga ta`sir ko'rsatadi. Ma`naviy-ahloqiy madaniyat siyosiy va huquqiy madaniyatga qanchalik ta`sir etsa, o'z navbatida siyosiy, huquqiy madaniyat ham ma`naviy-ahloqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Siyosiy-huquqiy voqea-hodisalarning idrok qilishi, jamiyatda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan siyosatning, huquqiy munosabatlarning ahloq normalariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi Yoshlarning ongli faoliyati orqali uning alohida nomayon bo'ladi.

Siyosiy, huquqiy-ma`naviy ongi va madaniyati yuqori darajada rivojlangan fuqarolar, shuningdek Yoshlar yashaydigan jamiyatgina taraqqiyotning yuksak bosqichlariga ko'tarila oladi. O'zbek xalqi siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyatning manbalari, zaminlari, sharq mamlakatlari madaniyatiga borib taqaladi. Sharq nihoyatda xilma-xil bo'lsada, sharqona jamiyatlar uchun muayyan o'xshash xususiyatlar xos ekanligini ta'kidlash lozim. Ustuvor darajada individuallikka yo'naltirilgan g'arb insoniga qarama-qarshi sharq kishisi jamoaga

ma`naviy bog`liqlikni o`zida ifoda etadi. YUqorida qayd qilingan fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki siyosiy, huquqiy, ma`naviy-ahloqiy madaniyatdagi birgalikdagi harakati yagona holda bo`lib, parallel rivojlanishi emas, balki madaniyatining bu turlarini uzviy ravishda chatishib ketishi, birgalikdagi ta`siri, bir-birini boyitishi ijtimoiy boshqaruv sohasida madaniy qadriyatlar tashkil bo`lishini harakterlaydi.

Ma`lumki, ta`lim-tarbiyaning asosiy maqsadi- Yoshlarda shaxs sifatida yuksak ahloqiy fazilatlari shakllantirishdan iboratdir. Ahloq bo`lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

O`tgan asrimiz insoniyat yaratgan ko`plab yangiliklarning, texnik va madaniyat inqiloblarining, ko`plab xalqlar ozodligini guvohi bo`ldi. Ayni paytda asrimiz tarixida qonli urushlarning, zo`ravonliklarning ham o`chmas izlari qoldi. Tarixdagi ushbu xatolarning takrorlanishini oldini olish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ta`minlash maqsadida butun insoniyat oldida tinchlikni saqlashdek muhim vazifa turibdi. Er yuzining turli mintaqalarida sodir bo`layotgan, mohiyatan butun insoniyat boshiga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol. Germaniya olimlarining tadqiqotlariga ko`ra, 1945-1995 yillarda, ya`ni qirg`inbarot 2-jahon urushidan keyingi 50 yillik «tinchlik hukm surgan davr»da insoniyat atiga 26 kun tinchlik nashidasidan bahramand bo`lgan ekan. Ana shu yillar davomida turli xil majorolar o`pqonida 25 mlndan 35 mlngacha kishi begunoh halok bo`lgan. Nemis olimlari o`z tadqiqotlarida millatchilik, zo`ravonlik va diniy eksterimizmning barchasi odamzodda aql, zakovat, madaniyat va ma`rifat etishmagani tufayli sodir etilgan, degan ibratli xulosani bildirishgan⁶². XXI asrda yashar ekanmiz bugungi kunda insondan keskin sifat o`zgarishi o`z-o`zini anglab olishni talab qilmoqda. Tinchlik madaniyati va zo`ravonlikka qarshi harakatga jahonning turli burchaklarida turli darajada faoliyatlar olib borildi. Tinchlikni targ`ib etuvchi, zo`ravonlikka qarshi kurashuvchi, ijtimoiy haqiqatni o`rnatish uchun harakat qilgan davlat arboblari va

⁶² Sh.Faxriddinov. Ijtimoiy tahdidni anglash zarurligi. Tafakkur. 1999 y, № 3, B-105

nomayondalarini ko'plab keltirib o'tishimiz mumkin. Ular qatoriga Maxatmagandi Martin Lyuter King, Nel'son Mandella, Albert SHveytser, Danlo Dol'chi, Mat' Tereza va boshqa minglab tinchliksevarlarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston o'z istiqlolining birinchi kunidanoq jahon hamjamiyati oldida tinchlik madaniyatini namoyish qilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida I.A.Karimovning 1993 yil BMTning 48 va 1995 yil 50 sessiyalarida, 1994 yil EHXT sessiyasida, 1996 yil Lissabondagi sammitda, BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikka asoslangan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi seminarida, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan ozod hududni tashkil etish to'g'risidagi anjumanida, 1996, 1998 yillar YUNUSKO ijroiya kengashining sessiyalarida, markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlararo Kengashining majlislarida, iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (EKO) sammitlarida, davlat tashriflarida va boshqa nufuzli yig'ilishlarida so'zlagan nutqlarida o'rtaga tashlangan fikrlari yurtimizda, mintaqamizda rivojlanishni tinchlikni ta'minlovchi barqaror tayanchga aylantirdi. I.Karimov 1996 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan YUNUSKO Ijroiya Kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida BMTning tinchlik siyosatini qo'llab-quvvatladilar. «O'zbekiston YUNUSKO bosh direktorining o'ning nizomidagi asosiy qoidalar: kishilar ongiga tinchlik g'oyasini singdirish hamda barqaror taraqqiyotga ko'maklashishga sodiqligini saqlab qolishiga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab quvvatlaydi»⁶³. Insonlar ongida tinchlikni saqlash uni himoya qilish g'oyasini qaror toptirish maqsadida BMT va uning ixtisoslashgan Kengashlari ushbu masalaga e'tiborni qaratmoqda. Ayniqsa BMTning YUNESKO kengashi bu sohada o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Tinchlik madaniyati g'oyasi 1-marta 1989 yil bo'lib o'tgan. «Tinchlik- odamlar ongida» mavzusidagi xalqaro Kongressda ilgari surilgan edi. Hozirgi kunda YUNESKO tomonidan tinchlik madaniyati dasturi keng yo'lga qo'yilmoqda. 1995 yilda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh Konferentsiyasining 28-sessiyasida qabul qilingan 1996-2001 yillarda o'rta muddatli strategiya to'g'risida qabul qilingan 012

⁶³ I. A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yilida. T.O'zbekiston. 1998 yil B-254

rezolyutsiyani eslatib, unda XX asr oxirida asosiy vazifa urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga o'tishning boshlanishini e'lon qilgan edi. BMT tomonidan yangi asrimizning 1 yili ya'ni 2000 yil Xalqaro tinchlik madaniyati yili deb e'lon qilinda va uni o'tkazishdagi etakchi rolni YUNESKOga yukladi.

Tinchlik madaniyati va a'zo davlatlarning YUNESKO faoliyati bilan bog'liq Dekloratsiyasini ko'rib chiqish uchun YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasining yakuniy majlisi 1998 yil 6 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tdi va unda «Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a'zo davlatlardagi faoliyati» to'g'risida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda «a'zo davlatlar» BMT tizimi muassasalari, boshqa hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarga xalqaro tinchlik madaniyati yilini 2000 yilda xotirada qoladigan tadbirlar bilan nishonlash, uni yaxshi o'tkazish uchun hozirdanoq barcha choralarni ko'rishni taklif etadi va bu bilan bardoshlilik va bir-birini tushunish, qashshoqlik va begonalik bilan kurashish qadriyatlarini tasdiqlanadi. Bu esa eng avvalo, ayollar va Yoshlarga foyda keltiradi» deyilgan⁶⁴.

Davlatimiz Prezidenti I.A.Karimov YUNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasining 155-yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqida tinchlik madaniyatini qat'iy qo'llashini izhor etib, «Mening nazarimda, tinchlik madaniyati g'oyasi XXI asrdagi umuminsoniy taraqqiyot falsafasining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya bugun ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish yo'lida xalqlarni birdamlik va hamkorlikka da'vat etishi lozim» dedilar. Mamlakatimizda turli dinlarning totuvlikda yashab kelganini, buning uchun esa barchaning birgalikda yashash imkoniyati borligi tasdig'i ekanini eslatib, «kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi» dedilar⁶⁵.

Ushbu xalqaro hujjatning Toshkentda qabul qilinishining O'zbekiston uchun olamshumul ahamiyatga egadir. Chunki bu mamlakatimizning tinchliksevarligi va tinchlik yo'lida olib borayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ladi. «Tinchlik» va

⁶⁴ Toshkent Deklaratsiyasi. Xalq so'zi. 1998 yil 13 noyabr.

⁶⁵ I.A.Karimovning YUNESKO ijroiya kengashining 155-yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 2008 yil 7 noyabr

«madaniyat» soʻzlari barchamizga tanish boʻlgan atamalardir. Ammo ularning uygʻunlikda «tinchlik madaniyati» koʻrinishida aks etishi qanday maʼnoni anglatadi? Bu savolga tinchlik madaniyatiga bagʻishlangan Dekloratsiyasida quyidagicha izoh beriladi: tinchlik madaniyati adolat va demokratiyaga, bardoshlilik va birdamlik, zoʻrligni rad etuvchi va janjallar boshlanmasdanoq oldini olish, muammolarni muloqot va muzokaralar yoʻli bilan hal etuvchi, har bir kishining oʻz jamiyati ichki rivojida barcha huquq va imkoniyatlaridan toʻliq hajmda amalga oshishini taʼminlaydigan madaniyatdir.

Tinchlik madaniyati muammosi oʻz ichiga davlatlararo, xalqlararo, millatlararo, shuningdek davlat ichidagi turli guruhlar orasidagi, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, millati, jinsi, madaniyati va dini turlicha boʻlgan insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Tinchlik madaniyati doimiy harakatdagi, keng qamrovli, koʻp oʻlchamli va ochiq tushunchadir. Uning zamirida dunyoga keng qarash yotadi. U zoʻrlik va qurolli toʻqnashuvlarni oldini olish, tinchlik oʻrnatish, inson huquqlari hurmatini taʼminlash, demokratiyaning chuqurlashtirish va mustahkamlash bilan bogʻliq tushunchadir. Tinchlik madaniyati muammosini tahlil qilish va echish quyidagilarni nazarda tutadi.

-1-dan, tinchlik madaniyatini hayotga tadbiq etish inson faoliyatining barcha asosiy qirralarini oʻz ichiga oladi va iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ruhiy, pedagogik va boshqa fanlarning toʻqnashuvi hamda kelishuvini nazarda tutadi. Boshqacha soʻz bilan aytganda tinchlik madaniyatini umumlashtiruvchi kontsepsiyani ishlab chiqish fanlararo tadqiqotni talab qiladi;

-2-dan, tinchlik madaniyatining keng matematikasini ishlab chiqishda olimlarning xalqaro hamkorligining tizimini yaratish lozim va unga boshqa ilmiy fikrlari nomayondalarini ham jalb etish zarur⁶⁶;

-3-dan, madaniyat kotegoriyasining koʻp qirraligining oʻzi ham bu ishda davlat arboblari, partiya etakchilari, jamoatchilik harakatining faollarini ham bu ishga ishtirokini kengaytirishni talab qiladi;

⁶⁶ Общественные перемены и культуры Мир-М Все Мир- с 57.

-4-dan, ilm-fan va siyosat o'rtasidagi bo'linishni yo'qotish zarur. +isqa qilib aytganda, tinchlik madaniyati qadriyatlarini qaror toptirishda ilm-fan, siyosat, xalq ommasining jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro ittifoqini, birligini amalga oshirmoq darkor.

Asosiy e'tibor tinchlik madaniyatining qat'iyligiga qaratilishi lozim, ya'ni jamiyat rivojlanishining doimiy harakterli belgilaridan biri bo'lib qolishi kerak. Shuningdek, bu erda bir tomondan fuqarolik jamiyatining turli darajadagi davlat nodavlat institutlari, tashkilotlari rivojlanishi bilan bog'liq tinchlik madaniyatini yaratishning siyosiy tomoni va ikkinchi tomondan esa, individual tarbiyaga qaratilgan psixologik va ta'lim faoliyati aspektari muhimdir.

1995 yil YUNESKOning mas'ul xodimlaridan professor Devid Adamsning nashr qilgan ishi tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif quyidagi xulosalarga keladi:

- ✓ Tinchlik madaniyati- murakkab qarashlar va qoidalar yig'indisi bo'lib, u amaliyot asosida rivojlanadi va kengayadi;
- ✓ Tinchlik madaniyatini targ'ib etishda ayollar ishtiroki juda muhim ahamiyat kasb etadi;
- ✓ Erkin axborot almashinuvi- tinchlik madaniyatining muhim elementi hisoblanadi;
- ✓ Tinchlik madaniyati uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u ma'lum bir tizimga solinishini talab etadi;
- ✓ Tinchlik madaniyati urushlar muzokarani hal qiluvchi vosita bo'lmagan sharoitdagina ravnaq topishi mumkin.

Tinchlik madaniyatini shakllantirishda qonun ishlab chiqish ta'lim tarbiyaviy va boshqa sohalardagi islohotlarning o'rni beqiyosdir. Ammo bu chora-tadbirlar etarli emas, buning uchun tinchlik madaniyati odamlar e'tiqodida va ishonchida shakllanib, etilib borishi lozim. Bu uzoq davom etadigan ko'p qirrali jarayonda Yoshlarni ushbu ruhda tarbiyalash asosiy o'rinda turadi. O'zbekiston tarixiy merosi boyliklaridan va demokratlashtirish va tinchlik ruhida o'zining madaniy qadriyatlarini saqlash va ko'maytirish xohishidan hamda o'zining tinchlik

madaniyatini tiklashga, ko'maklashishga intilishlarini yanada mustahkamlagan holda tinchlik madaniyati yilida O'zbekistonda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1-dan, tinchlik madaniyati yilini muvaffaqiyatli yakunlash maqsadida konseptsiya ishlab chiqish:

2-dan, mamlakatimizda tinchlik madaniyati mafkurasini keng yoyish, aholi o'rtasida asosan Yoshlarda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyatini qaror toptirish:

3-dan, jamiyatda haqiqiy madaniyatni va o'zaro hamkorlikni qaror toptirishd fuqarolik jamiyatiga xos institutlarni rivojlantirish, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlash:

4-dan, O'zbekistonda «Jamiyatda tinchlik madaniyatini shakllantirish to'g'risida milliy dastur» qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu dasturni ishlab chiqishda xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Sal'vadorda Tinchlik madaniyati to'g'risida milliy dastur qabul qilingan va unda ko'rsatilgan vazifalar hozirgi kunda amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

-Xalqaro tinchlik madaniyati yilining maqsad va vazifalari bilan jamoatchilikning xabardor qilib borish, YUNESKOning ushbu sohaga bag'ishlangan loyixa dasturlarini amalga oshirishdagi tajribalarini ommaviy axborot vositalari bilan tanishtirib borish:

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlab ilmiy-amaliy anjumanlar, maslahatxonlar, davra suhbatlari ommaviy munozaralar tashkil etish va unda xalqaro tajribalardan keng foydalanish;

-aholini, ayniqsa yoshlarni har xizmatchilarni tinchlik, demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashning yahlit tizimini shakllantirish;

-mamlakatimiz tadqiqotlarini tinchlik madaniyati dasturlarini amalga oshirishga jalb etib ularni xalqaro hamkorlikda ish olib borishini yo'lga qo'yish.

Insonlar ongida tinchlikni saqlash fikrini qaror toptirishda, ularda tinchlik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi shunda ko'rinadiki, mamlakatimizning, butun jahonning ertangi kuni, hayoti Yoshlar qo'lida bo'ladi. Agar ularda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyati shakllanmagan bo'lsa, er yuzida tinchlikni saqlash, zo'ravonlikka qarshi kurash muammosi o'z echimini topa olmaydi. Shu sababli yoshlarimiz XXI asrga tinchlik madaniyati bilan kirib borishlari lozim.

Yoshlarda tinchlik madaniyati ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyat shakllangan bo'lsagina qaror topishi mumkin. Chunki insonlarda shakllangan har qanday madaniyatning negizida tinchlikka etaklovchi maqsad yotadi, aksincha, tinchlik, totuvlik bo'lmagan joyda esa madaniyatning hech qanday ko'rinishi shakllanmaydi va rivoj topmaydi. Yuqoridagi fikrlarimiz madaniyatning turli ko'rinishlari bir-birini to'ldirib, bir-biriga yordam berib, parallel rivojlanibgina qolmasdan, balki uzviy alohida bo'lishini ko'rsatmoqda.

Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishda asosiy e'tibor ularda inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilishi lozim. Unda inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt va boshqa shunga o'xshash hujjatlarning asosiy printsiplaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

-Yoshlar ongida tinchlikni saqlash g'oyasini qaror toptirish hamda tinchlik qaror toptirish hamda tinchlik madaniyatini shakllantirish vazifasini hal etishda ta'lim tarbiya sohasi etakchi o'rin tutmog'i lozim. Bunga nafaqat ta'limtizimi muassasalari, balki keng jamoatchilik institutlari ya'ni oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalarini ham jalb etish.

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalar, darsliklarni yaratishni yo'lga qo'yish;

-YUNESKO va boshqa ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tomonidan nashr etilayotgan adabiyotlarni Yoshlarga etkazish, ularni tarjima qilish;

-Yoshlarni inson huquqlari va demokratiya, tinchlikni saqlash mavzusida o'tkazilayotgan turli tadbirlar, seminarlar, konferentsiyalarga qatnashishlarini tashkil etish, tadbir yakunlari, materiallari bilan ularni tanishtirib borish;

-Yoshlar bilan urush qatnashchilari o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish kerak, qaysini adolatsizlik, zo'ravonlikning tirik guvohlari, jabrlanuvchilari bilan yuzma-yuz uchrashuvlar Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllanishga yordam beradi;

-«Yoshlar va O'zbekistonda tinchlik madaniyati» shiori ostida maxsus loyihalar ishlab chiqib, tinchlikni saqlashda yoshlar faoliyatini oshirishni yo'lga qo'yish lozim.

-Yoshlarni tinchlik madaniyati va zo'ravonlik ruhida tarbiyalashda turli ilg'or texnikaviy kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinchlikni targ'ib etuvchi fil'mlar, videoo'yinlar, radio va teledasturlarni yanatish darkor. Vaholanki, hammamizga ma'lum hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari aholi namoyish qilayotgan mantiqsiz, zo'ravonlikka asoslangan fil'mlar, axborotlar tarqalmoqda. Buni esa yoshlar zo'ravonlik hayotda bo'lishi tabiiydek qabul qilmoqda, ularda maqsadga zo'ravonliksiz etishib bo'lmaydi degan tushunchalar shakllanmoqda.

-